

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT

PEDAGOGIKA INSTITUTI

Pedagogika va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Umumiy psixologiya kafedrası

“Himoyaga ruxsat etilsin”

fakultet dekani

_____ dots.M.Rabbimov

_____2013yil

5141600 - “Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish”

yo'nalishi bakalavr darajasini olish uchun

Bitiruv malakaviy ishi

Mavzu: “Kichik maktab yoshi o'quvchilarida muloqot va nutq
faoliyatini rivojlantirish”

Himoyaga tavsiya etilsin

Umumiy psixologiya

Kafedra mudiri,

_____ dots.Y.Alimqulov.

“___” _____2013yil

Bajardi: Usmonova Buvmayram

Ilmiy rahbar: Kamolova Sh

JIZZAX 2013

MUNDARIJA

Kirish	3-8
I. BOB. Kichik maktab yoshi o'quvchilarida muloqot va nutq faoliyatini rivojlantirishning ahamiyati.....	9-31
1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik hususiyatlari	9-17
1.2. Muloqot va nutq haqida umumiy tushuncha	18-31
II. BOB. Kichik yoshdagi maktab o'quvchi shaxsining rivojlanishida muloqot va nutqning oziga hosligi.....	32-53
2.1. Muloqotning o'quvchi hayotida tutgan o'rni va funktsiyalari	32-40
2.2. O'quvchi hayotida muloqot va nutqning o'rni.....	41-44
2.3. Ta'lim jarayonida o'quvchilar muloqot va nutqining osishi	44-53
Umumiy xulosa.....	54-56
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	57-58

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Mamlakatimizda boy ma'naviy salohiyat va umuminsoniy qadriyatlarga hamda hozirgi zamon madaniyati, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi.

. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, uslubiy talablariga ko'ra fan, texnika va ilg'or texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanish bugungi ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Psixologiya fani uchun eng murakkab muammolar qatoriga uning asosiy kategoriyalari bo'lmish shaxs, muomala, motivatsiya, faoliyat, ong tavsifi, ularning takomillashuv bosqichlari, xususiyatlari, aks ettirish imkoniyatlari, hukm surish qonuniyatlari va mexanizmlari bo'yicha aniq, mezoniy, tatbiqiy fikrlarni bildirish masalalari va vazifalari kiradi.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyingi 22 yil ichida xalqimiz o'zining mard va donishmand rahbari boshchiligidagi asrlarga tatigulik ulkan ishlarni amalga oshirdi. Mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayot va milliy ma'naviyat sohalarida tub islohotlar tufayli yurtimizda obod va erkin farovon hayot asoslari barpo etildi.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ta'limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va dilaktik talab o'quvchining dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan uning me'yoriy-huquqiy asoslari quyidagi hujjatlarda belgilab berildi hamda ular bazasida eng muhim yo'nalish va natijalar ijrosi ta'minlandi.

Mustaqillik yillarida yangi davlat barpo etishda milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, mamlakatni modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lidagi murakkab, keng ko'lamli vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasi muhim printsiptial va hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi

Prezidentimiz bugungi kunda yoshlarni, umuman, ilm-fan sohasi xodimlarini, olimlarni taraqqiy topgan davlatlar ilmiy jamoatchiligining e'tibor markazida turgan, eng ilg'or, istiqbolli ilmiy izlanish va tadqiqot ishlarini yurtimizda rivojlantirishga undab, ushbu maqsadda Fanlar akademiyasi va oliy o'quv yurtlari tarkibida yangi laboratoriyalar tashkil qilish, ularning rivojlangan mamlakatlardagi ilm-fan markazlari bilan samarali hamkorlik aloqalarini o'rnatishi zarurligini alohida ta'kidladi.

Bu yo'nalishdagi ishlarga yangi turtki berish, xorijiy davlatlardan zamonaviy ilmiy jihoz va uskunalarni olib kelish, eng iqtidorli yoshlarni bu ishga safarbar qilish va rag'batlantirish maqsadida Prezident tomonidan Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi qoshida alohida fond tuzish va uni etarli darajada mablag' bilan ta'minlash taklif etildi. ¹

O'zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqoralik jamiyatini qurish yo'lidan borayotgan bir paytda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashdan iboratdir.

Bugungi kunda nutq madaniyati kursi barcha o'quv maskanlarida va oliy o'quv yurtlarida o'rgatilishi quvonarlidir. Nutq madaniyati hozirgi davr tilshunoslik fanining dolzarb masalalaridan biridir. Chunki, til va nutq har ikkala soha inson nutqi bilan aloqadadir. Har ikkalasi ham kishilar nutqiy faoliyatining foydali ta'sirchan, o'tkir bo'lishi uchun kurashadi, insonning nutqiy madaniyati, uning nutqiy holatini

¹ "2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi"

o'stirishga xizmat qiladi. Nutq madaniyati ham, notiqlik ham nutqiy odam, nutqiy go'zallik, nutqiy mantiq qoidalaridan oziqlangan holda ish ko'radi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi orqali shaxsning har tomonlama barkamol bo'lib etishishini ko'zda tutadi. Butun ma'suliyat boshlang'ich sinf o'qituvchisining zimmasiga tushadi

Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin oshirib borayotgan axborot – ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyatini va sharoitini yaratib berish zarur.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Nutq muloqot ularning fiziologik asoslari, o'quvchilarda rivojlanishi va o'sishi borasida bir qancha psixologlar o'zining ilmiy ishlarida etirof etishgan. Jumladan I.P.Pavlov, P.Broka, K.Bernike, P.K.Anokhin, A.R.Luriya, J.Piyaje, I.Jinkin, kabi psixolog va fiziolog olimlarning tadqiqotlari murakkab va ko'p qirrali psixologik qarashlari tajriba va izlanishlari bilan katta hissa qo'shganlar. Ammo aynan boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishda o'qituvchi muloqoti va nutqining ahamiyati va o'rni, muammosini aniqlashga bag'ishlangan muammo o'zining mukammal psixologik yechimini topmagan. Shuningdek biz BMTimizni boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishda o'qituvchi nutqining ahamiyati va o'rni shuningdek o'quvchi shaxsining tarkib topishidagi ahamiyatidan kelib chiqib "Kichik maktab yoshi o'quvchilarida muloqot va nutq faoliyatini rivojlantirish" deb tanladik.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Kichik maktab yoshi o'quvchilarida muloqot va nutq faoliyatini rivojlantirish asosida kichik maktab yoshi o'quvchilarini barkamol inson va yuksak ma'naviyatli, erkin fikrlovchi ko'p omilli shaxs sifatida shakllantirish. Mavzuning ilmiy nazariy o'rganilishi, psixologik va pedagogik adabiyotlarda yoritilishini tahlil qilish: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim jarayonida muloqot va nutq faoliyatining, psixologik xususiyatlarini yoritish:

Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti: Kichik maktab yoshi o'quvchilarida muloqot va nutq faoliyatini rivojlantirishning ahamiyati va o'rnini aniqlab va bu asosida olib borishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: Kichik maktab yoshi o'quvchilarida muloqot va nutq faoliyatini rivojlantirishning ahamiyatini aniqlab bu asosida o'qitishning mazmuni, shakli, usul va metodlari hamda psixologik shart-sharoitlari. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsini shakllantirishning psixologik tomonlarini yoritish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari: Kichik maktab yoshi o'quvchilarida muloqot va nutq faoliyatini rivojlantirishga oid xususiyatlarni psixologik samaradorligini aniqlash.

Himoyaga olib chiqiladigan xolatlar:

Muloqot va nutq faoliyatini rivojlantirish muommosi qadimdan tadqiq etib kelinayotganligiga qaramasdan, odat shakllanishining psixologik jihatlari tajqiq etilmagan va bu muommo yechimini kutayotgan muommolardan biri.

- o'quvchilarida muloqot va nutq faoliyatini rivojlantirishning psixologik jihatlari yuzasidan yetarli manba mavjud emas. bilish jarayonini rivojlanishining psixologik jihatlarini asos qilib olish maqsadga muvofiq.
- muloqot va nutq faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar o'ziga xos psixologik xususiyatga ega. Bu xususiyatlar bilish jarayonini rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.
- o'quvchilarida muloqot va nutq faoliyatini rivojlantirishning shart – sharoitlari hamda berilgan imkoniyatlardan foydalana bilishga bog'liq.

Bitiruv malakaviy ishining metodlari: Muammoga oid malakaviy ishlar va adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatish, anketa, savol-javob, suhbat, ekspert bahosi, pedagogik eksperiment, semantik differensial umumlashtirish, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalariga matematik statik ishlov berish.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlari va asarlarida bayon qilingan o'qituvchilar, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish, oliy ta'limni takomillashtirish haqidagi fikrlari, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», dialektik bilish nazariyasi va uning muhim tamoyillari, «Oliy ta'lim konsepsiyasi», «Pedagogik ta'lim konsepsiyasi», «Umumiy o'rta ta'lim

konsepsiyasi», Sharq mutafakkirlarining shaxs aqliy kamoloti faoliyati haqidagi qarashlari.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi: Kichik maktab yoshi o'quvchilarida muloqot va nutq faoliyatini rivojlantirishning nazariy va psixologik asoslarini aniqlanganligi; o'quvchilarga ta'lim jarayonida nutq turlarini ostirishning psixologik yo'llarini o'rganish va uni rivojlantirishning samaradorlik darajasi aniqlanganliklari bilan belgilandi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati: Kichik maktab yoshi o'quvchilarida muloqot va nutq faoliyatini rivojlantirishning nazariy metodologik asoslarini xarakterlovchi jihatlar aniqlandi va bu asosda bosqichlari asoslandi. Bu bilan o'quvchilar muloqot va nutq jarayonlari bilan boyitildi.

Ma'lumki ta'lim jarayonining maqsadi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim malaka va ko'nikmalar hajmini oshirishgina emas, balki o'quvchilar bilish faoliyatini, jumladan muloqot va nutq jarayonlarini tarkib toptirish hamdir. Shu sababli bitiruv ishi materiallari boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishda o'quvchi nutqining ahamiyati va o'rni psixologik yo'llarini o'rganishda metodik material bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kichik maktab yoshi o'quvchilarida muloqot va nutq faoliyatini rivojlantirishning ahamiyatini nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishdir. Ushbu BMIdan «Psixologiya», «Pedagogik psixologiya» kabi fanlarni va kurslarni o'qitishda foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar tayyorlandi. Kichik maktab yoshi o'quvchilarida muloqot va nutq faoliyatini rivojlantirish bo'yicha faollashtiruvchi testlar tayyorlandi, bulardan oliy o'quv yurtlarida bo'lajak psixologlarni tayyorlash jarayonida, shuningdek, o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi natijalarining ishonchliligi va asoslanganligi; O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga, shuningdek, pedagogika va psixologiya fanlarining hamda pedagogik psixologiyaning fundamental asoslariga amal qilinganligi; pedagogik tajriba-sinov ishlarining keng miqyosda va izchil olib borilganligi; tadqiqot

natijalarining haqqoniy tahlil qilinishi va ularning amaliyotga uzluksiz ravishda joriy etilib borilganligi bilan belgilandi.

Bitiruv malakaviy ishi natijalarining joriy qilinishi: Kichik maktab yoshi o'quvchilarida muloqot va nutq faoliyatini rivojlantirish qay darajada ekanligini maktabda barcha dars jarayonlarida turli to'garaklar yordamida tizim vositasida rivojlantirishning pedagogik asoslari yo'nalishida tadbiq qilindi.

Bitiruv malakaviy ishini himoyaga olib chiqiladigan g'oyalar va natijalar: Kichik maktab yoshi o'quvchilarida muloqot va nutq faoliyatini rivojlantirishning ahamiyati nazariy va psixologik asoslari; mazmuni, metodlari, uzluksiz ketma-ketligi va pedagogik shart-sharoitlari; Kichik maktab yoshi o'quvchilarida muloqot va nutq faoliyatini rivojlantirishning psixologik yo'llari asosida bola shaxsining tarkib toptirishga yo'naltirilgan psixologik jarayonning samaradorligi darajasi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi: kirish, ikki bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

Bitiruv ishining umumiy mazmuni: Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishning maqsadi va vazifalari, metodlari haqida, ishning ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Ishning birinchi bobida Kichik maktab yoshi o'quvchilarida muloqot va nutq faoliyatini rivojlantirishning ahamiyati, boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari, muloqot va nutq haqida umumiy tushunchalari kabi muammolar atroflicha yoritilgan.

Ishning ikkinchi bobi kichik yoshdagi maktab o'quvchi shaxsining rivojlanishida muloqot va nutqning o'ziga hosligi, muloqotning o'quvchi hayotida tutgan o'rni va funktsiyalari, o'quvchi hayotida muloqot va nutqning o'rni, ta'lim jarayonida o'quvchilar nutqining o'sishi kabi muammolarini o'rgatishga bag'ishlangan amaliy psixologik tadqiqotning tashkil qilinishi, tadqiqot uslublari va tajribalardan olingan natijalar tahlil yoritilgan.

I. BOB. Kichik maktab yoshi o'quvchilarida muloqot va nutq faoliyatini rivojlantirishning ahamiyati.

1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlarining individual xususiyatlarini anglay boshlaydilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z-o'zini anglashishdan jadal rivojlana boradi va mustahkamlana boshlaydi. Bu davrda bolalar o'zlarining ismlariga yanada ko'proq ahamiyat bera boshlaydilar va ularning ismlari tengdoshlari va atrofdagilari tomonidan ijobiy qabul qilinishiga harakat qiladilar. Bolani o'zining tashqi kurinishga va gavda tuzilishiga beradigan bahosi ham o'z-o'zini anglashida ahamiyati juda katta. Kichik maktab yoshidagi o'quvchining o'quv faoliyati jarayonida uzidagi xulq-atvorni va faoliyati o'zi tomonidan muvofiqlashtirish qobiliyati rivojlanadi, ongli ravishda bir fikrga kela olish qobiliyati rivojlanadi, o'z faoliyatini o'zi o'zgartirishga xamda bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishning qaror topishiga yordam beradi. O'quvchi xulq-atvorning motivaashtirishi ham o'zgaradi. Bunda do'stlari va jamoanng fixrlari asosiy motivlar bo'lib qoladi. Axloqiy his-tuyg'ular va shaxsning irodoviy xususiyatlari shakllavadi.²

7-8 yoshlarda ko'zga tashlangan bolalarning xususiyatlari yillar davomida rivojlanadi va mustahkamlanadi. O'smirlik davrining boshlariga kelib, juda ko'plab shaxsiy fazilatlar shakllanib bo'ladi. Bolalarning individualliklari ularning bilishi jarayonida ham ko'rinadi. Bu davrda bolalarining bilimlari keyagayadi va chuqurlashadi, ko'nikma va malakalari takomillashadi. 3-4 sayuflarga borib, aksariyat bolalarda umumiy maxsus layoqatlar ko'zga tashlamadi. Kichik maktab davrida hayot uchun nihoyatli axamiyatli bo'lgan muvaffaqiyatga erishish motivi mustahkamlanadi, bu esa o'z-o'zidan boshqa layoqatlarni jadal rivojlanishga olib keladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq to'liq shakllanib bo'lgani uchun ham ularga ta'msh berishda kattalarga qullaniladigan uslublardan foydalanish mumkin, Kichik maktab yoshidagi bolalar psixik rivojlanishga ularning atrofidagi odamlar, ota-onasi va ayniqsa o'qituvchi bilan bo'ladigan munosabatga orqali erishish mumkin, 3-4 sinflarga borib bola uchun uning urtoqlari

² X.Ibragimov, U.Yo'ldoshev, X.Bobomirzayev "Pedagogik psixologiya" Toshkent 2007.

bilan munosabatining ham ahamiyat ortadi. Bu munosabotlarida kattalar ta'lim-tarbiya maqsadlarida foydalanishlari mumkin. Bu yoshdagi bolalar sovtlab yolg'iz holda sevimli mashg'ulotlar bilan shug'ullanishlari mumkin shu asosda ularda mehnatsevarlik va mustaqillik fazilatlarini shakllanadi.

Bu davrda bola maktab o'quvchilariga quyiladigan turli talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyorlanadi. Uning psixikasi bilim olishga etadigan darajada rivojlanadi. SHu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofliqi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkuriniig yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan o'zoq muddatdan va shartli barqaror bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va shaxsning shakllanishidaga o'rni nihoyatda katta. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligida inson ongining turli asosiy shakllarining mazmunini egallaydi va insoniy an'analar asosida harakat qilishni o'rganadi. O'quv faoliyatida bola o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashq hildiradi. O'quv faoliyata boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola o'z atrofdagilari bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U hayotining tubdan o'zgarganini, unga yangi majburiyatlar, nafaqat, har kuni maktabga borish, balki o'quv faoliyati talablariga bo'ysunish ham yuklatilganliginni his eta boshlaydi. Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati, yutuklari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinaetgan yangi muomala, munosabat uning ijtimoiy mavqei o'zgarganini to'la his etishiga, o'ziga nisbatan munosabatining o'zgarishiga asos bo'ladi. Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o'z vaqtlarini tug'ri taqsimlash borasida yaxshi o'qish, o'ynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shugullanishga o'rgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashadigan, maslahatlashadigan yangi bir urinni egallaydi, o'quvchining maktabdagi muvaffaqiyati uning keyingi psixik rivoshi va shaxsining shakllanishida -to'liq ijobiy asos bo'ladi.

Bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o'rin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari, atrofdagilari unga yosh boladek emas, balki o'z vazifalari, majburiyatlari bor bo'lgan, o'z faoliyat natijasiga ko'ra hurmatga sazovor bo'lishi mumkin bo'lgan alohida shaxs sifatida munosabatda bo'ladilar. Buning natijasida bolaning o'z-o'zidan oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi o'z urnini anglay boshlaganini ko'rish mumkin. Bu davrda bolaning "Men shuni xohlayman? motividan "Men shuni bajarishim kerak" motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o'quvchida psixik zo'riqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida, balki xatti-harakatida ham, ya'ni ma'lum darajada qo'rquvni kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon bo'ladi.³

Bu davrga kelib bola atrofida bilan o'zaro munosabatda ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xoxlayotgan narsalarni hamda, o'z oilasida o'zi egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi. SHuningdek, u o'zini-o'zi boshqarish malakasiga ega bo'ladi, vaziyat va holatga qarab ish yurita oladi. Bu yoshdagi bolalar xatga-harakatlari va motivlari ularning o'zlariga beradigan baholariga qarab "Men yaxshi bolaman" emas, balki bu xatti-harakatlar o'zgalar ko'z o'ngida qanday namoyon bo'lishiga qarab baholanishini tushuna boshlaydilar.

Bola maktab ta'limiga bog'chada tarbiyalanayotganida tayyorlanadi.

Maktabga kelish arafasida bolaning so'z boyligi o'z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. Agar bu yoshdaga normal rivojlanayotgan bola o'z nutqida 500-600 so'zni ishlati, olti yoshli bola 3000-7000 so'zni ishlatadi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, fe'l, sifat, son va boglovchilardan iborat bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z nutqlarida qaysi so'zlarni ishlatgani afzalu, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. 6-7 yoshli bola o'z jumllarini murakkab grammatik tizimda to'za oladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib, nutqni o'zlashtirishi ma'lum bir faoliyatga aylana boradi, 7-9 yoshli bolalarning o'ziga xos yana bir xususiyati bola nutqida o'z fikrini bayon etibgina qolmay, balki o'z suhbatdoshining diqqatini o'ziga jalb qilish uchun ham gapiradilar,

³ M.G.Davletshin "Yosh psixologiyasi va pedagogic psixologiya" (102 bet) 1992 yil Toshkent.

Bu davrda yozma nutq ham shakllana boshlaydi. Yozma nutq jummalarni to'g'ri to'zish va so'zlarni to'g'ri yozishga ma'lum talablar quyilganligi bilan xarakterlanadi, Boshlang'ich sinf o'quvchilari so'zlarni qanday eshitgan bulsa, shundayligicha yozilmasligini bilishi, ularni to'g'ri talaffo'z etishi va yozishga o'rganishi zarur. Yozma nutqni egallash asosida bolalarda turli matnlar haqidagi ma'lumotlar yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutk endigina shakllana boshlaganligi bois, bolada hali o'zi yozgan fikrlarni, so'z va harflarni nazorat etish malakasi hali rivojlanmagan bo'ladi. Lekin unga ijob qilish imkoniyati beriladi. Ushbu mustaqil ijodiy ish maktab yoshidagi o'quvchilarda berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun ma'lumot tuplash, muhim jihatlarini ajratib olish, uni ma'lum ketma-ketlikda bayon etish, reja to'zish malakasini yuzaga keltiradi. Jummalarni to'g'ri to'zish, aynan shu mazmunga mos so'zlarni topish va ularni to'g'ri yozish, tinish belgilarini to'g'ri qo'yish, o'z holatlarini topa olish va to'g'rilash aqliy rivojlanishning ko'rsatkichlaridan hisoblanadi.

O'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchining aql-idroki, sezgirligi, ko'zatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Ta'lim jarayonida ularning bilimlar ko'lami kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi, utkirliigi bilan boshqa yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o'ta sinchkovaik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

7-10 yoshdagi o'quvchining idroki, uning xatti-harakati, o'yini va mehnat faoliyata bilan bevosita bog'liqdir. O'quvchi o'zining ehtiyoji, mayli, qiziqish va yugirilishi turmush sharoitiga mos, shuningdek o'qituvchi tavsiya etgan narsalarni idrok qiladi.

Birinchi sinfga kelgan bola predmetlarning rangi, shakli va kattaligani, ularni makonda joylashishini bilish bilan, birga ularni taqqoslay oladi. Maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun bola sensor rivojlanganlik darajasini yuqori bo'lishi juda

muxim. Maktab yoshiga kelib, normal rivojlanayotgan bola rasm va suratlar real hayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadilar. SHuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks ettanini real haetga taqqoslagan holda bilishga harakat qiladilar. Bola rasmlarda atrof-hayotdagi narsalarni kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay biladilar. Bu tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi. CHunki, bola shu rasmlar orqali olam go'zalligini, uning turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o'z munosabatini bildiradi.

Tafakkurning rivojlanishini kichik maktab yoshidagi bola psixikasining sog'lomligida, uning bilish faolligida ko'rish mumkin. Bolaning qiziquvchanligi, asosan, atrof-olamni bilish, o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Bola o'ynab turib, olam sir-sinoatlari, sabab-hodisalari va bog'liqlaridan xabardor bo'lishga intiladi. Masalan, bola o'zi mustaqil ravishda qanday predmetlar suvda cho'kishi, qaysilari esa so'zishni tadqiq qila oladi. Bola aqliy munosabatlarda faol bo'lsa, u bugunchalik ko'p savol beradi va bu savollar, asosan, xilma-xil bo'ladi, Bolani qor, yomgir qanday yotishi, quyosh kechasi qaerda bo'lishi, mashina qanday qilib yurishi, erdan osmongacha bo'lgan masafani bilishi juda qiziqtiradi. Bu ularning **«Nima uchun?»**, **«qanday qilib?»**, **Nima orqali?»** kabi savollariga javob olishga qaratilgan bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar asosan o'zlari ko'rib turgan narsa haqida chuqurroq fikr yurita oladilar. Bu yoshdagi bolalar tafakkurining asosiy turi obrazli tafakkurdir.⁴

6-10 yoshli bola mantiqiy fikrlay oladi, lekin, bu yosh asosan ko'rganlariga tayanib, ta'lim olishga senzitiv bo'lgan davr hisoblanadi. So'zsiz bugungi jamiyatimizda bolalarning aqliy rivojlanishi yangi bilimlarni tuzilish tipiga ham bog'liq bo'lib, ular ma'lum darajada shakllangan kattalar tomonidan to'ziladi. CHunki, aqliy rivojlanish ijtimoiy omillar bilan belgilanadi-individ ijtimoiy munosabatlar bilan o'zgaradi. Bolaning maktabda muntazam ravishda o'qishga o'tishi uning atrof-hayotdagi narsa-hodisalarga nisbatan fikrini va munosabatlarini o'zgarishiga olib keladi. Kichik maktab yoshidash o'quvchilarning tafakkuri mantiqiy fnkrlash, muloxaza yuritish, hukm va xulosa chiqarish, taqqoslash tahlil qilishning turli usullarini qo'llashdek o'ziga xos xo'susiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalar va

⁴ E.Goziyev "Umumiy psixologiya" 2010 yil.

o'smirlardan farq qiladi. Ta'lim jarayonida tafakkur operatsiyalariga, mustaqil fikrlashga o'rgatish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kamol toptirishning garovidir.

O'quv faoliyati psixik funktsiyalarni yuqori rivojlanganlik darajasini talab etadi. Bolaning diqqati, xotira va tasavvuri mustaqil tus ola boshlaydi. Lekin, odatdagi holat va vaziyatlarda bolaga o'z psixik funktsiyalarini yuqori darajada tashkil etish hali birmuncha murakkabdir.

6-7, 10-11 yoshli bolalar bilish jarayonlaridagi ixtiyoriylik irodaviy zo'riqish asosidagina, bola o'zini atrofdagilarning talabi yoki shaxsiy harakatta intilgandagina yuzaga kelishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatni irodaviy zo'r berish bilan boshqarish va vaziyatga moslash imkoniyati yaxshi bo'lmaydi. Buning asosiy sababi, ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Bolalarda ixtiyorsiz diqqat ko'proq rivojlangan bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quv materiallarining yaqqolliigi, yorqinligi, jozibadorligi, o'quvchida baxtiyor his-tuyg'ular uyg'otadi, irodaviy zo'riqishsiz, osongina fan asoslarini egallash imkonini beradi. 1-2 sinf o'quvchilari diqqatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri - uning etarlicha barqaror emasligidir. SHuning uchun ham ular o'z diqqatlarini muayyan narsalarga qarata olaydilar va diqqat ob'ektlar ustida o'zoq tura olmaydi.

Ta'lim jarayoni kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mexnat qilish, misol-masalalar echish, mashqlar bajarish, takrorlash irodaviy zo'r berish jarayonida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi.

Bo' yoshdagi bolada ixtiyoriy diqqatni to'plash, tashkil qilish, uni taqsimlash, ongli ravishda boshqarish o'quvi shakllana boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi bola ma'lum darajada o'z faoliyatini o'zi mustaqil rivojlantira oladi. U o'z rejasini, u yoki bu ishni qanday ketma-ketlikda bajarishini so'z bilan ifodalab bera oladi. Rejalashtirish so'zsiz bolaning diqqatini tashkil eta oladi va rivojlantiradi. Ularda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar so'zsiz o'z diqqatlarini aqliy

masalalarga qarata oladilar, lekin bu juda katta irodaviy kuchni va yuqori motivatsiyalarni tashkil etilishini talab qiladi.

Bolaning xayoli tevarak-atrof taassurotlari, tasviriy san'at asarlarini etarli darajada aks ettirishda vujudga keladi. Siymolar, shartli belgilar, tabiat manzaralari jamlanib, o'quvchilarda xayol paydo bo'ladi.

O'quv faoliyati boladan berilgan o'quv materiallarini esda saqlab qolishni talab etadi. o'qituvchi o'quvchisiga nimalarni eslab qolishi zarurligi haqida ko'rsatmalar beradi. O'quvchi nimani eslab tsolishi kerakligini takrorlaydi, uni tushunib olishga harakat qiladi. Lekin bu yoshda ixtiyorsiz xotira, shubhasiz, ustunlik qiladi. Bolannng xotirasida saqlab qolishini asosan uning ishga bo'lgan qiziqishi belgilab beradi. O'quv materialini tushunish, eslab qolishning asosiy sharti hisoblanadi.

Dars jarayonida o'qituvchi turli vaziyatlarni tasavvur qilishni so'raydi. Bu holat. albatta, biron-bir yordamchi qurol-lar-predmetlar, maketlar, sxemalar bo'lgan taqdirdagina o'quvchi tasavvurini rivojlantirishi mumkin. Aks holda bu yoshdagi bolalar mustaqil tasavvur harakatlar qilishga qiynaladilar.

Psixolog Piaje tadqiqotlarida 6-7 yoshli bolalardan turli xil balandlikdagi idishlardagi suv miqdorini belgilash so'ralgan. Bolalar suv miqdorini bir-biri bilan teng bo'lgan idishlarda ko'rganlaridan so'nggina o'z javoblari noto'g'riligini bilganlar. Kichik maktab davrida tasavvur asosan bolalar rasm chizayotganlarida, shuningdek ertak va hikoyalar tuqiyotganlarida rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tasavvuri juda keng va xilma-xil bo'ladi. Ayrim o'quvchilar real borliqni tasavvur etsalar, boshqalari esa fantastik obraz va vaziyatlarni tasavvur etadilar. SHu bois kichik maktab yoshidagi bolalarni realistlar va fantazyorlarga ajratish mumkin. Bolalar ko'pincha o'zlariga ma'lum siymolar, syujetlardan foydalangan holda yangi obrazlarni tasavvur etadilar, yaratadilar. Bu tasavvurlar zahirida ularning qurquvni engishi, do'st topishi, xursandchilik hislari yotadi. Bundan tashqari tasavvur terapevtik natija olib keluvchi faoliyat sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Bola real hayotda qiyinchiliklarga duch kelib, ulardan chiqib keta olmagan holatda ko'pincha xayolga beriladi. Masalan, mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bola o'zining hamma havas qiladigan oilasi, uyi bo'lishini, bu uyga o'g'rilar kelib qolsa, u qahramonlik qilingani

tasavvur qiladi. o'z tasavvurida yaxshi yoki yomon holatlarni boshidan kechirgan bola o'zining kelgusi xatti-harakatlari motivatsiyasi uchun zamin tayyorlaydi. Kattalarga nisbatan tasavvurning bolalar hayotida ahamiyati juda katta. Bola tasavvur qilib atrof-hayotni chuqurroq bila boshlaydi, o'z-o'zining shaxsiy tajribasidan tasavvur yordamida chetga chiqa oladi, ijodiy layoqati rivojlanadi, shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.⁵

O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Etakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar o'yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga, shuningdek, tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishiga imkoniyat ham yaratadi. Aynan ana shu o'rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qish uchun harakat qilishi mumkin. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda o'zlari erishgan muvaffaqiyatini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish nihoyatda muhim. Kichik maktab davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emotsional zo'riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bog'cha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida shuningek o'smirlik davrida ham yaqqol ko'zga tashlanadi maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqida fikr va bergan baholariga qarab, o'zlariga o'zlari baho beradilar. O'quvchining beradigan bahosi, tug'ridan-to'g'ri o'qituvchining beradigan bahosiga va turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlariga bog'liq. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarlarda beradigan baholari turlicha yuqori adekvat moe yoki past bo'lishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularnn shaxs sifatada tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarda

⁵ M.E.Zufarova "Umumiy psixologiya" Toshkent 2008y (278b).

muvaffaqiyatga erishishini belgalab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin, Bu davr muvaffaqiyatga erinish motivlari tarkib topishi bilan bir qatorda, mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mehnatsevarlik, asosan, o'qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Mehnatsevarlik bolada o'zi qilayotgan mehnati unga zavq bergan taqdirdagina yuzaga keladi. Bolada mustaxkillik xususiyatiniig shakllantirish asosan kattalarga bog'liq. Agar bola haddan ziyod ishonuvchan itoatkor, ochiq, xususiyatli bulsa, unda asta-sekinlik bilan bo'ysunuvchanlik, tobelik xususiyati mustahkamlashib boradi. Biroq bolani vaqtli mustaqillikka undash, unda ba'zi salbiy xislatlarnish shakllanishlar ham olib kelishi mumkin, chunki hayotiy tajribalarini, asosan», kimlargadir taqlid qilgan holda o'zlashtiradi. [Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko'proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. SHuningdek, shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish keraki, unda bolaga biron bir mas'ul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin Ana shu his bolada mustaqil bulishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi.](#)

1.2. Muloqot va nutq haqida umumiy tushuncha

Muloqot ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, uning o'z o'rnini va ahamiyati mavjud. Muloqot odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayriboshlanishini o'z ichiga oladi. Shaxslar munosabatga kirishar ekan, eng muhim vositalardan biri bo'lgan tilga murojaat qiladilar. Muloqotning ikkinchi jihati munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki xatti-harakatlar bilan ham ayriboshlashdan iborat. Muloqot jarayoni shaxslarning qiziqishlariga, dunyoqarashiga, muomala madaniyatiga ham bog'liq bo'ladi, chunki shaxslardagi muloqot tabiiy ehtiyojdir.

Odamlar o'rtasida axborot almashish, o'zaro ta'sirning yagona yo'lini ishlab chiqish, o'zgalarni idrok qilish va tushunib baholashga *muloqot* deyiladi. *Til* so'z belgilari tizimi bo'lib, u psixik faoliyatni ifodalovchi, shu bilan birga, nutqda foydalaniladigan aloqa vositasidir. Biroq nutqning buzilishi muloqot jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bosh miya qobig'ining ayrim qismlari zararlanishi natijasida nutqning izdan chiqishidan iborat psixopatologik nuqson *afaziya* deyiladi. Nutqning buzilishi insonning yozma nutqiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutqdagi turli buzilishlar natijasida yozuvning izdan chiqishi *agrafiya* deyiladi. Agraifiya holatida odam yozish qobiliyatini butunlay yo'qotadi yoki so'zlardagi harflarni tushirib qoldiradi, harflarni bir-biriga qo'sha olmaydi. Agraifiya katta odamlarda bosh miya po'stlog'i faoliyatining buzilishi natijasida ro'y bersa, bolalarda u duduqlik natijasida kelib chiqadi. Muloqot aniq ijtimoiy munosabatlar tizimi orqali belgilanadi. U ijtimoiy axloq normalari asosida tartibga solinadi. Individda hayotida muloqotning vazifalari turlicha. Shu boisdan, muloqotning quyidagi vazifalarini ko'rsatishimiz mumkin.

Muloqotning psixologik vazifalari:

- informatsion;
- regulyativ;
- signal;

– nazorat;

Tarbiya.

Informatsion vazifa axborotni qabul qilish va uni tarqatishdir. *Regulyativ* vazifa muloqotni tartibga solish va boshqalar bilan to'g'ri munosabatni tashkil qilishdan iborat. *Signal* vazifasining ko'magida biz bo'lib o'tayotgan katta ahamiyatga ega voqealar, hodisalar haqidagi signalni qabul qilamiz va uzatamiz. *Nazorat* vazifasi ko'magida axborotni qabul qilish va tarqatish jarayoni nazorat qilinadi. *Tarbiya* qilish vazifasi muloqot orqali shaxsni shakllantirish jarayoni bo'lib, nihoyat darajada muhim omil hisoblanadi.

Muloqot - shaxs individual rivojlanishi jarayonida namoyon bo'ladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri. Bu faoliyat insondagi kuchli ehtiyojlardan biri - inson bo'lish, odamlarga o'xshab gapirish, ularni tushunish, sevish, o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Shaxs o'z taraqqiyotini aynan shu faoliyat turini egallashdan boshlaydi va nutqi orqali (verbal) va nutqsiz vositalar (noverbal) yordamida boshqa faoliyat turlarini mukammal egallashga zamin yaratadi.

Muloqat – bu ikki yoki undan ortiq kishilar orasidagi affektiv baholovchi xarakter va bilish bo'yicha ma'lumot almashishdan iborat bo'lgan o'zaro ta'sir etishdir.

Muloqatning tizimida o'zaro bir – biriga bog'liq jixatlar ajratiladi: kommunikativ, interaktiv va pertseptiv.

Muloqatning kommunikativ jixati bu muloqatdagi indiqidlarni o'zaro ma'lumot almashishidir.

Muloqatning interaktiv jihati bu – individlar orasidagi muloqatda nafaqat bilim va g'oyalar, balki harakatlar bo'yicha ham o'zaro ta'sirini tashkil etishdan iborat.

Muloqatning pertseptiv jihati muloqat jarayonida o'zaro bir – birini idrok qilish orqali tushunishdir.

1. muloqat ma'lumot almashishning sifatida. (Muloqatning kommunikativ jixati).

Har qanday ma'lumotni belgilari, aniqrog'i belgilar tizimi orqali bilish mumkin.

Kommunikativ jarayonda qo'llaniladigan bir necha belgilar tizimi mavjud. Bular verbal kommunikatsiya (nutq orqali) va noverbal (nutq bilan bog'liq bo'lmaydigan belgilar orqali) kommunikatsiyadir.

Verbal kommunikatsiyada inson nutqi belgilari tizimi sifatida qo'llaniladi. Nutq – inson tomonidan qo'llaniladigan tovushlar signallari yoki yozma belgilardan iborat bo'lib, ular orqali muloqatdan olingan ma'lumot qayta ishlanadi, saqlanadi va uzatiladi. U jarayon til orqali amalga oshiriladi. Til so'z belgilari tizimi bo'lib, u muloqat jarayoni psixik faoliyat mahsuli bo'lib yuzaga keladi.

Muloqatning kommunikativ akt sifatida quyidagicha tasavvur etish mumkin:

Kommunikator, adresant	- muloqot sub'ekti sifatida omil namoyon bo'ladi
Retseipient, adresat	- bu ma'lumot kimga o'zatilmoqda
Ma'lumot	- nima o'zatilmoqda
Kod	- qanday vositalar asosida
Maqsad	- nima uchun o'zatilmoqda
Aloqa kanali	- ovoz, hat, efir orqali aloqa
Natija	- nimaga erishildi

1 – sxema. Kommunikativ akt


Nutq universal kommunikatsiya vositasi bo'lib, u orqali uzatilish lozim bo'lgan ma'lumot o'zining mantiqiy mazmunini saqlab qoladi.

Nutqning uchta funktsiyasi mavjud:

Signifikativ (umumlashtirish, fikrni uzatish); his tuyg'ularni uzatish hamda irodaga zo'r berish (odamlarga ta'sir ko'rsata olish).

Nutqni paydo bo'lishi va amalga qo'llanilishi quyidagi sxemada ko'rish mumkin.

Nutqni idrok etish va uni fikrga (g'oyaga) aylantirish



2 – sxema. Fikrni paydo bo'lishi modeli va nutqni yuzaga kelishi.

Ma'lumki, nutqning o'ziga xos turlari mavjud – tashqi, ichki, og'zaki, yozma, monologik, dialogik, aktiv (faol), passiv va h.k.

Kommunikativ jarayonda o'zaro munosabatga kirshuvchilarni bir – birlarini tushunishlari juda muhimdir. Bunda nutqning quyidagi muhim xususiyatlari paydo bo'ladi:

Mazmundorlik, tushunarlilik, ifodalilik, ta'sirchanlik.

Buyuk frantsu yozuvchisi Antuan Sent Ekzyuperi (1900 – 1944): “Muloqat – bu shunday ne'matki, u orqali inson lazzatlanadi” deb yozgan edi.

So'zning mohiyati haqida Sa'diy (1210 – 1292): “Aqillimisan yoki ahmoq, kattamisan yo kichik, buni biron so'z aytmaganingcha bila olmaymiz” degan edi.

Halqimizda shunday ibratli ibora bor: “Inson aqlu-farosati – uning nutqini aniqligida nomoyon bo'ladi”.

Noverbal kommunikatsiyaga – belgilarning optik – kinetik tizimi kirib, ularga jestlar (qo'l harakatlari), mimika (yuz harakatlari) va pantomimika (qo'l-oyoq, tana harakatlari) kiradi.

Jestlar – insonning qo'l harakatlari bo'lib, u orqali insonning ichki holati, biror bir obektga munosabati va tashqi olamga yo'nalganligi ifodalanadi. U yoki bu halqlarda jestlar turlicha qabul qilinadi. Italiyaliklar va frantsuzlar o'z muloqatlarini jestlarsiz tassavur eta olmaydilar. O'zbek halqida nutqda jestlardan ko'p foydalanish yaxshi odat

sifatida qabul qilinmaydi. Lekin shuni ham ta’kidlash lozimki, noverbal kommunikatsiya og’zai nutqda aytilmay qolgan fikrlarni ifoda etish imkonini beradi.

Mimika – inson yuz xarakterlarini bir qismi bo’lib, u orqali insonning o’ylari, xatti – xarakterlari, tasavvurlari. Xotiralashi, taajubi va h.k. nomoyon bo’ladi.

Pantomimika – inson tanasi yoki uning qismlari yordamida ifodalanadigan harakatlar tizimidir.

Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, kundalik muloqat jarayonida so’zlar 7% ni, tovushlar va intonatsiya 38% ni, nutqsiz muloqat esa 55% ni tashkil etadi.

Publitsiy aytganidek biz: “Ovoz bilan gapiramiz, tana bilan suhbatlashamiz”.

Noverbal kommunikatsiyaning boshqa belgilari tizimini ko’rib chiqaylik.

Paralingvistik va ekstralingvistik belgilar izimi – bu vokalizatsiya tizimi bo’lib, u ovoz sifatida uni diapazoni nutqdagi pauzalar, yo’tal, yig’i, kulgu nutq tempida namoyon bo’ladi.

Muloqot jarayonida muloqatga kirishuvchilarning bir – biriga nisbatan joylashishlari ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, auditoriyada joylashishi muloqat uchun juda noqulaydir. Ayniqsa seminarlar jarayonida o’qituvchi va dokladchi muloqati vaqtida qolagilar munozarada fol ishtirok etish imkoniyatiga ega emasdir.

Seminarlarni yoki shu kabi suhbatlarni ”T” shaklida joylashtirilgan stol – stullardan o’tkazish ham foydali, lekin dumaloq shakilda joylashtirilgan stol-stullarda muloqatlar juda samaralidir.

Vizual muloqatda “ko’z kontakti” belgilar tizimi ham qo’llaniladi. Ushbu tizim pedagoglar, rahbarlar ish faoliyatida muhim ahamiyatga ega.

Qiziqarli belgilar tizimi sifatida muloqat jarayonida gul, fotorasm va boshqalarning foydalanishi mumkin. Ehtimollar gullar orqali insonlar ma’lum bir ma’lumotni uzatish imkoniyatiga egadir.

Bu hol o’z tarixiga ega.

Gullar tili qadimda Sharqda paydo bo’lgan. Uni ayollar yaratishgan. O’z yuzlarini ochish imkoniyatiga ega bo’lmagan ayollar, o’z hislarini va kayfiyatlarini gullar orqali ifodalashga harakat qilganlar. Assosatsiya sifatida paydo bo’lgan belgilar qat’iy odatlarga aylangan. Masalan, azaliya guli – sog’inch, yolg’izlik, giatsint

g'unchalarining soni uchrashuv kunini, qo'ng'irroq gullar soni uchrashuv vaqtini anglatgan.

XIX asrda gullar tili Frantsiya, so'ng Angliya va butun jahonga tarqalgan. Asta – sekin gullar tili bilan ranglar tili ham yuzaga keladi. Jumladan, Evropaning ko'p davlatlarida siyoh rang do'stlik, hashamatlilik, to'kinlar ramzi bo'lsa, Yaponiyada – g'am, og'riq belgisi bo'lgan. Har qaysi ma'lum holat, kayfiyat ma'noni anglatadi. Jumladan, qizil rang – hayot, sevgi; pushti – yoshlik; sariq – baxt, quyosh, to'y, xursandchilik; yashil – tinchlik, xotirjamlik; ko'k – ishonch, vafo; qora – tantanavorlik, qayg'u; oq – poklik, beg'uborlik ramzi sifatida tushuniladi. O'zbekiston Respublikasining bayrog'i ham o'z ramziga ega; xavo rang moviy osmon va tiniq suv, er va osmon ramzidir. Havo rang Amir Tumer davrining asosiy belgisidir. Oq rang – kenglik,

Insoniyat taraqqiyoti tarixida til tufayli aks ettirishning imkoniyatlari qayta quriladi, olam odam miyasida yanada aniq, ravshan in'ikos ettiriladigan bo'ladi. Tilning paydo bo'lish munosabati bilan xar bir alohida shaxs jamiyatining ijtimoiy tarixiy taraqqiyotida, jarayonida to'plagan tajribalaridan foydalanish imkoniyati tug'iladi. Til yordami bilan har bir inson shaxsan o'zi hech qachon duch kelmagan notanish xrdisalar, holatlar, vaziyatlar, sharoitlar^yuzasidan bilim olishga erishadi. Xuddi shu boisda til odamga ko'pchilik hissiy va intellektual ta'sirlar hamda taassurotlar to'g'risida o'ziga o'zi hisobot berish imkoniyatini yaratadi. Inson til yordami bilan boshqa odamlarga o'tmish, hozirgi zamon va kelajakka zid narsalar, voqelik yuzasidan axborot, xabar, ma'lumot berishi ularga ijtimoiy tajriba mohiyati, ko'nikma hamda malakalarni o'tkazishi,

uzatishi mumkin.

Ma'lumki, hayvonlar, jonivorlar o'zlarining individual tajribalarini o'z turkumidagi boshqa namoyandalarga o'tkazishga yoki berishga mutlaqo qobil emaslar. Ular, ayniqsa, o'z turkumlaridagi avlodning ilgarigi tajribalarini o'zlashtirish qobiliyatiga ega emaslar, chunki mavjudotlar tug'ma irsiy belgilarga, instinktlarga va shartsiz reflekslarga asoslanadilar, xolos.

Biosfera va neosfera to'rtinchi ma'lumotlar, qonuniyatlar, harakatlantiruvchi kuchlarni bilish va egallashda qisqa ijtimoiy-tarixiy davr oralig'ida g'oyat ulkan yutuklarga erishuvchi insonning hayvonot olamidan muhim farqi shundan iboratki, birinchidan, odamning shaxsiy individual tajribasi umuminsoniy tajriba bilan uzviy uyg'unlikka ega, ikkinchidan, tajriba mahsulotlari muayyan darajada saklanadi, uchinchi, mazkur tajribalar takomillashib, modifikatsiyalashib boradi, to'rtinchidan, ularning mohiyati, tuzilishi qo'lyozmalarda o'z aksini topadi.

Odamdagi shaxsiy individual tajribaning umuminsoniy tajriba bilan bog'liqligi kishilarda tilning mavjudligi bilan izoxlanadi. Til oddiy qilib tushuntirilganda so'z va belgilar sistemasi hamda majmuasidan iboratdir. Inson tomonidan u yoki bu faoliyatning bajarilishi belgilar, alomatlar xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, uning mahsuldorligi, muvaffaqiyati til tarkiblarining ahamiyatiga bevosita aloqadordir. Masalan, haydovchi uchun ko'cha qoidalari, matematik uchun formulalar, operator uchun signallar (semiotika — zeta yunoncha «belgi») belgilar, simvollar, alomatlar k; pifasini bajarib, faoliyat uchun regulyator sifatida xizmat qiladi.

Shuning uchun belgilar va ularning ahamiyati insonning yuksak psixik funktsiyalari (ya'ni idrok, xotira, tafakkur, xayol)ning vositasidir. Odatda, belgilar turlituman bo'lishidan qat'i nazar, ularning eng muhimi — bu so'zdir. Har bir so'z ma'lumot, xabar, axborot vazifasini bajaradi va muayyan mazmunni o'zida aks ettiradi (masalan: mashg'ulot, daftar, yomg'ir va boshqalar).

Tilning asosiy funktsiyalari quyidagilardan iborat:

a) til yashashning vositasi, ijtimoiy tajribani avloddan avlodga uzatish, berish va o'zlashtirish quroli tarzida vujudga keladi (avlodlar otaonalar, o'qituvchilar va murabbiylar);

b) til vosita yoki kommunikatsiya usuli, hatto odamlarning xatti-harakatlarini boshqaruvchi qurol sifatida namoyon bo'ladi (masalan: «Lektsiya bo'lmaydi», «Bugun bayram» — ta'sir qilishdan, ta'sir o'tkazishdan iboratdir);

v) tilning muhim funktsiyalaridan yana bittasi — intellektual faoliyatning quroli sifatida xizmat qilishdir (muammoli vaziyat mohiyatini tushunish, echishni rejalashtirish, ijro etish, maqsad bilan solishtirish).

Odam hayvonot olamidan farqqi o'laroqo'zi xohamaliy, xohaqliy harakat bo'lishidan qat'i nazar, uni rejalashtira oladi. Faoliyatni bunday rejalashtirish echimi uchun vosita qidirishning va umumiy fikriy masalalarni hal qilishning asosiy quroli tildir. Psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, tilning eng asosiy funksiyasi bu kommunikatsiyadir.

Nutq faoliyati — odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish, anlodlarga berish (uzatish) yoki kommunikatsiya o'rnatish, o'z shaxsiy qarakatlarini rejalashtirish va amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir.

Nutq axborot, xabar, ma'lumot va yangi bilim berish aqliy topshiriqlarni echish faoliyatidan iboratdir. Agarda til aloqa vositasi (quroli) bo'lsa, nutq esa aynan o'sha jarayonning o'zidir.

Ijtimoiy munosabatlardan odamlarning bir-birlari bilan doimiy aloqa qilish zarurati kelib chiqadi. Bu munosabat, albatta, nutq vositasida amalga oshiriladi. Nutq xam odam ongi singari mehnat maxsulidir. Nutq boshqa kishilar bilan aloqada bulish ehtiyojidan va buning qat'iy zarurligidan kelib chiqqandir. Biz nutq orqali o'z fikrimizni, bilimimizni, tajribamizni boshqalarga yetkazamiz va boshqa kishilarning fikrini bilib olamiz, o'zimizning ruhiy xolatimizni, kechirayotgan tuygu-xislatimizni xam ifoda qilamiz. Biz nutq yordamida bir-birimizga ta'sir qilamiz. Nutq gapirayotgan kishining ongida va qalbida bo'lgan fikr va maqsadini ifoda qiladi. Biz nutq yordamida bir-birimizga ta'sir qilamiz. Nutq gapirayotgan kishining ongida va qalbida bo'lgan fikr maqsadini ifoda qiladi. Biz nutq vositasi bilan bironi xursand qilamiz yoki unga tassalli berishimiz mumkin. Nutqning kuchi xaqida xar bir xalqda aloxida maqollarni bulishi xam bejiz emas. Bu maqollar nutqning kishi ruhiy qanday ta'sir qilish kuchiga ega ekanliginni yaqqol ko'rsatadi. Masalan, «Yaxshi so'z-jon ozigi», «Sevdigan xam til, bezdigan ham til» va xakazo.

Kishilar bir-birlari bilan muomala, munosabatda bo'lar ekanlar, ular u yoki bu tildagi (uzbek rus, fransuz, nemis, va k.) grammatik koidaga asoslangan so'zlardan foydalanadilar. Insonlarning til vositasida bir-birlari bilan muommala qiladilar.

Demak nutq til yordamida bir-birlari bilan aloqa qilish vositasidir.⁶

⁶ A.V.Gomez, I.A.Domashenko "Atlas po psixologii" Moskva 1986 (195b).

«Nutq» va «til» terminlarining ma'nosini ko'pincha bir-biriga aralashtirib yuboradilar. Nutq bilan til bir narsa emas. Til suz belgilari sistemasidan iborat bo'lib, u aloka kuroli bo'lsa, nutq aloqa protsessorining o'zidir. Lekin ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Ular birgalikda mavjuddir. Xar bir til tarixiy taraqqiyot davomida odamlarning nutq yordamida aloqa bog'lash protsessida vujudga kelgan, rivojlangan va takomillashib borgan. Xar qanday tilning mavjud bulishi, takomillashib borishi kishilarning usha tilda doimiy gaplashib turishga bog'liq. Agar kishilar u yoki bu tilni nutq orqali biladigan muomalada ishlatmay kuysalar u til inqirozga uchraydi, «o'lik til»ga aylanib qoladi. Nutq faqat kishilar urtasidagi aloqa vositasigina bo'lib qolmasdan, balki tafakkur qilishning zaruriy vositasi, tafakkur kurolidir. Chunki biz fikr qilish uchun so'zdan foydalanamiz, fikrimizni so'z bilan ifoda qilamiz va boshqalarning fikrini bilib olamiz. Odatda biz ovoz chiqarib yoki ovoz chikdrmasdan, uz ichimizdan tilning grammatika koidalarga xos xolda aytiladigan so'zlar orqali fikr yuritamiz. Tafakkur bilan nutq turli xodisa bo'lsa xam, lekin ular bir-biri bilan uzviy ravishda bog'lanib ketgan. Xap bir kishidagi tafakkurning o'sishi shu kishi nutqining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lganidek kishi nutqining rivojpanishi xam undagi tafakkurning usishiga bog'liqdir.

Birok keyingi yillarda fiziologik va psixologik olimlar (P.K. Anoxin, A.R.Luriya, A.N.Leont'yev, D.N.Uznadze va boshqalar) tomonidan amalga oshirilgan qator ilmiy tadqiqot ishlaridan ma'lum bo'lishicha, nutq faoliyatining fiziologiya asosini yuqorida ko'rsatilganidek talkin etish yetarli emas. Balki bosh miya po'stining boshqa markazlari kabi, nutq markazlarining xam katsiy chegaralari yuk va bir-biridan ajralgan xolda harakat qilmaydi.

P.K.Anoxin tadqiqotlarida xosil qilingan ma'lumotlar nuqtai nazaridan olganda, nutq faoliyatining fiziologik asosini bir necha funksonal sistemalarning murakkab uyushmasi tashkil etadi, bu funksional sistemalardan ayrimlari nutq uchun ixtisoslashgan sistema bo'lsa, boshqalari uzga faoliyatlar uchun xam xizmat qila beradi.

Kishi nutq orqali boshqalar bilan munosabatda bo'lar ekan, buni albatta ikkinchi signal sistemasi orqali amalga oshiradi. Shuning uchun ham vaqtli bog'lanishlar vujudga keladi. Bu esa o'zining kator xususiyatlariga ega bo'ladi. Eshitilgan suzarning xammasi esda saqlanib qolavermaydi. Ikkinchi signal sistemasi tanlab esda olib qoladi. Nutq

uzining xususiyatiga va bajaradigan vazifalariga qarab asosan, uch turga bulinadi: ogzaki, yozma va ichki nutq kabi. Og'zaki nutq odatda kishilar bir-birlari bilan muomala va munosabatda bo'lganlarida o'zlarining fikrlarini ovoz chiqarish, gapirish bilan amalga oshiradilar. Gapiruvchi shaxs o'z fikrini ovoz, his-tuygularini faqat so'z bilan emas, balki imo-ishora, mimika va intonatsiyalarida xam ifoda qiladi. Gapiruvchi nutqi aniq ravon, emotsional bulishi kerak. Tinglovchilar esa o'z diqqatini jalb etib, ma'ruzachining nutqini tinglaganidagina, uning ma'nosiga yaxshi tushunib oladilar. Kishilar o'rtasidagi amalga oshirilayotgan munosabatlarning xarakteri yoki xususiyatlariga qarab ogzaki nutq dialogik va monologik tarzda bulishi mumkin. Dialogik nutq ikki yoki undan ortiq kishilarning bir-birlari bilan suxbatlashish protsessidir. Bunda suxbatdoshlar faollik kursatishlari kerak.

Dialogik nutq orqali suxbat qilayotgan kishilar bir-birlarining fikrlarini tez tushunib olgani xolda, suxbatdoshining aytgan gaplarini tasdiqlashi yoki unta e'tiroz bildirishi mumkin. Bu xil nutqning yana bir xususiyati bor, bunda suxbatdoshlarga ma'lum bo'lgan ayrim suzlar tushirib qoldirilishi xam mumkin. Ba'zi xollarda dialogik nutq; ixtiyorsiz xam bo'ladi, chunki suxbat davomida yangi-yangi fikrlar kelib chikaveradi. Lekin bu nutq izchil va tula bo'lmasligi xam mumkin. Bu sharoit bilan bog'liq. O'qituvchining o'qituvchi savoliga beradigan javobi izchil, mantiqiiy jixatdan puxta bulishi talab etiladi. O'qituvchining O'quvchiga beradigan savoli xam aniq tushunarli bulishi shart. Monologik nutq esa dialogik nutqdan farq qilib, bitta odamning boshqalarga qarata nutq suzlashidir. Masalan, dokladchi nutqi, lektorning auditoriyadagi o'quvchi, talabalarga qarata ma'ruza o'qishi kabilar monologik nutqdir. Monologik nutqning xam o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlar eng avallo shunadn iboratki, ko'pchilik oldida so'zlayotgan notiq fikrining mantiqiy jixatdan izchilligiga, burroligi, talaffuzning aniqligiga va nixoyat, fikrning ta'sirchanligiga e'tibor berish lozim. Ma'ruzachi tinglovchilarning o'zi aytayotgan gaplariga munosabatini xisobga olib borsa yaxshi bo'ladi. Monologik nutq faqat boshqalarga qaratilgan bo'lib kolmasdan, kishi o'zi yozgan konspektini yoki ma'ruzasini o'zicha ovoz chiqarib o'qishi xam mumkin, bu xam monologik nutqqa kiradi.

Yozma belgilardan foydalangan xolda nutq tuzish mumkin.

Bu yozma nutq bo'ladi. Yozma nutq monologik nutqning turlaridan biri bo'lib, ko'pincha boshqalar uchun tayinlangan nutqdir.

Yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlari bor. Avvalo, yozma nutqning murakkab va mukammal tuzulib ifoda qilinadigan nutq turlaridan ekanligini qayd qilish kerak. Chunki u masofa va zamon e'tibori bilan uzoqda bo'lgan kishilarga atalgan bo'ladi. Shuning uchun xam yoziladigan xat, makola, kitob va boshqa yozma asarlardagi gaplarning xamma bulaklari grammatik koidaga muvofik o'z joyida ishlatilishi lozim. Bunda gapning egasi, kesimi yoki boshqa bulaklari tushib qolar ekan, uning mazmuniga tushunmaslik mumkin. Bu yana shuning uchun zarurki, bizning bilim va tajribalarimiz kelgusi avlodlarga tushunarli bo'lishi kerak.⁷

Nutqning aloxida xili ham bo'lib, uni ichki nutq deb yuritamiz. Ichki nutq kishining uziga qaratilgan bo'lib, o'z ichidan, o'ylab jim utirgan vaqtidagi nutqidir. Odatda, u ovozsiz o'tadi. Ba'zi xollarda esa u shivirlab aytiladi yoki ovoz bilai gapiriladi. Bunday xodisa kishi bir narsadan juda kattik ta'sirlangan, xayajonlangan yoki bir narsadan pushaymon bo'lgan yoki o'zi yolg'iz utirgan vaqtlarida ruy beradi. Kishi o'zi sezmasdan baland ovoz bilan gapira boshlaydi yoki ayrim so'zlarni ovoz chiqarib gapirib xam qo'yadi. Ko'p xollarda ichidan uylanib utirgan kishi yuz ifodasini uzgartirib, boshini qimirlatib, qoshini chimirib, qo'llarini silkitib qo'yadi. Bu ichki nutqning harakat bilan ifoda kilinishidir. Bunday xodisa, ayniksa, kichkina bolalarda kup uchraydi. Bola uynar ekan, uning og'zi xam jim turmaydi. U o'z-o'zidan gapirib o'ynaydi. Ya'ni, o'z ichidan nima o'ylayotgan bo'lsa, shuni ovoz chikarib gapiraveradi. Ichki nutq bo'lmasligi, ko'pincha qismlardan tuzilgan bo'lishi xam mumkin. Masalan, kishi portfelini axtarar ekan, «uyda esdan chikib kolibdi-ku» yoki «olmabman», deb shivirlab qo'yadi va nima olishni unutilganligini o'zi biladi. Ichki nutqi tafakkurga tabiiy raiishda bog'langandir.


Inson xayotida nutq ma'lum davrda paydo bo'lib, taraqqiy eta boshlaydi. Bu taraqqiyot asosan uch davrga bo'linadi. Birinchi davr - nutqni o'zlashtirishdan oldingi davr. Bu ikki oylikdan un bir oylik davrgacha to'g'ri keladi. Ikkinchi davr - tilni dastlabki o'zlashtirish davri. Bu un bir oylikdan bir yoshu etti oylik davrgacha davom etishi mumkin.



⁷ V.Karimova "Psixologiya" Toshkent 2000y (39b).

Uchinchi davr - tilning grammatik tuzilishini o'zlashtirish davri bo'lib, bu davr bir yoshu etti oylikdan 3 yoshgacha bo'lgan davrni uz ichiga oladi. Bundan keyingi davrda bola nutqida printsiptan jixatdan suz formolari kupayib borishi mumkin. Bola nutqining riiolanishi uning butun psixik jarayonlarining taraqqiyoti bilan bog'liq va bunga yashash sharoiti xam katta ta'sir etadi. Yangi tugilgan bolada xali nutq bulmaydi, unda qandaydir chinkirik yiglash xususiyati buladi. Bu ichki va tashki signallarga (issik-sovuklik ochlik tashnalik yoki biror joyining ogrishiga) bog'liqdir. Taxminan ikki oylik bo'lganda bolada «gu-gulash» boshlanadi. Ya'ni bola «gugu», «atu» kabi tovushlarni chiqaradi. Ammo buni biror narsaga bog'lamasdan, shu tovushlarni chiqarishning o'zidan mamnun bo'lganaek tuyuladi. Olti oylik bo'lganda esa, ayrim tovushlarni birlashtirib so'z chiqaradigan bo'lib koladi va kattalarga ergashib so'zning ma'nosiga tushunmasa xam uning intonatsiyasiga karab paykab ola boshlaydi. So'z va gapning ma'nosini bola faqat bir yoshga tulgandan keyingina tushuna boshlaydi va bu yoshda uzi xam nutq egallash davrini o'taydi. Bu davrda bolalar nutqida lugat sostavining sekin-asta oshib borishi sezila boradi. Dastlab bola biror bo'g'in yoki suzni aytish bilan o'zining maqsadini bildira boshlaydi, bu so'z tugal bir gap vazifasini bajaradi. Bolalarning tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilishi xillari xam bo'ladi. Masalan, R tovushi o'miga, L, Sh o'miga, S, K tovushlari talaffuz etadi. Raqam o'miga Lakam, ber o'miga be, va xokazo.

Ba'zi bolalardagi toviushlarni talaffuz qilishdagi nuqsonlar maktab yoshida xam uchrab turadi. Bu ba'zan nutq apparatlarining nuqsonlariga bog'liq bo'lib, buni maxsus mutaxassis vrachlar va logopedlar tuzatishi mumkin. Ammo bolaning nutq apparata yaxshi ishlasa xam, nutqdagi fonetik nuqsonlar ota-ona, oiladagi katta yoshdagi kishilar tomonidan noto'g'ri tarbiya berilishi tufayli ancha vaqtgacha saqlanib keladi. Asosan bu kattalarning bolalar tilida erkanib gapirishlaridan kelib chikadi. Bolalar talaffuzidagi kamchiliklarni o'z vaqtida tuzatilmasa ba'zan bolaning duduqlanib qolishi va so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilishiga olib keladi. Kun sayin jismoniy jixatdan o'sayotgan bola aqliy, psixik tomondan xam takomillashib boradi. So'z boyligi borgan sari o'sa boradi. Xodisa va voqealar, narsalar nomini bildiradigan so'zlar, so'ngra fe'l, keyinchalik sifat va sonlar paydo bo'la boshlaydi. Masalan, ikki yashar bola taxminan 300-500 so'z egallagan bo'lishi mumkin. Ikki yosh bilan besh-etti yosh o'rtasida bolaning nutqi tez o'sa boshlaydi va so'z boyligi 3-4 mingtaga etadi.

Shu bilan birga uning tafakkuri xam rivojlana boradi. Bola ko'rgan, eshitgan narsalari to'g'risida ko'p savol beradi, yangi so'z va tushunchalarni egallay boshlaydi. Albatta, buning uchun bolaga to'g'ri tarbiya berish, u bilan so'zlashish, ertaklar gapirib berish, kitob o'g'ib eshittirish kerak. Nutqni o'z vaqtida amaliy egallab olish va so'z boyligini o'stirish umuman maktabda sifatli o'qish uchun yaxshi zamin bo'ladi. Maktabda o'qitiladigan barcha fanlar orqali o'quvchining lug'at sostavi boyib boradi, bolalar o'z nutqiga ongli munosabatda bo'ladi, bunda til va adabiyot darslari katta xissa qo'shadi. Chunki bu fanlar o'quvchilarga o'z nutqini muayyan grammatik talablarga javob bera oladigan qilib tuzish qonunlarini o'rgatadi. Tabiiy fanlardan dars beruvchi o'qituvchilar xam xar bir fikrni bayon qilishda grammatik qoidalarga rioya qilganlari holda, aniq ravon, logik jixatdan mukammal nutq orqali mashgulotni o'tkazishlari o'quvchilar nutqining o'sishiga, tafakkurning rivojlanishiga barakali ta'sir ko'rsatadi.





II. BOB. Kichik yoshdagi maktab o'quvchi shaxsining rivojlanishida muloqot va nutqning oziga hosligi.

2.1. Muloqotning o'quvchi hayotida tutgan o'rni va funktsiyalari.

Muloqot va o'rganish muammolari. Oxirgi yillarda "professionalizm" tushunchasi tez - tez ishtiladigan bo'lib qoldi. Chunki jamiyatda tub islohotlarni amalga oshirish, mehnat unumdorligini "inson omili"ni takomillashtirish hisobiga oshirish davr talabi bo'lib qoldi. Ayniqsa, odamlarni boshqarish sohasidagi professionalizmga katta e'tibor qaratilmoqda. Juda ko'pchilik mutaxassislar barcha bajaradigan funktsiyalari orasida odamlar bilan til topishish, ularga ta'sir ko'rsatish, ular faoliyatini to'g'ri tashkil qilish va boshqarish eng murakkablaridan ekanligini e'tirof etmoqdalar. Odamlar bilan normal munosabatlarni o'rnatish olmaslik, ayniqsa, biznes sohasida amaliy sheriklarning holatlari, kutishlarini aniqlay olmaslik, o'z nuqtai nazariga o'zgarishni professional tarzda ko'ndira olmaslik, "birov"ni, uning ichki kechinmalari va o'ziga bo'lgan munosabatini aniq tasavvur qila olmaslik amaliy psixologiyada kommunikativ uquvsizlik, yoki diskommunikatsiya holatini keltirib chiqaradi. Bunda odamlar oddiy til bilan aytganda, bir - birlarini tushunolmay qoladilar, shuning oqibatida pishib turgan loyiha yoki yaxshi reja amalga oshmasligi , bir necha oylarga cho'zilib ketishi mumkin.

Shuning uchun ham hozirgi zamon ijtimoiy psixologiyasining tadbqiqiy yo'nalishida, boshqaruv psixologiyasida katta yoshli odamlarni kommunikativ bilimdonlikka o'rgatish, ularda zarur kommunikativ malakalarni hosil qilishga katta ahamiyat berilmoqda. har bir korxona, xususiy firma yoki davlat muassasasini boshqaruvchi menedjer, rahbar tayyorlash muammosi ana shu rahbarlarni, boshqaruvchilarni psixologik jihatdan odamlar bilan ishlashga o'rgatish muammosini chetlab o'tolmaydi. Umuman, hozirgi davrda har qanday mutaxassis - vrach, muxandis, o'qituvchi, iqtisodchi, agronom, quruvchi, jurnalist, madaniyatshunos yoki boshqalar ham kommunikativ malakalarga ega bo'lmaguncha, bozor munosabatlari sharoitida tezda jamoaga kirishib, ko'pchilik bilan til topishib, o'z professoinal

mahoratini ko'rsata olmaydi. har bir ziyoli inson boshqalar bilan hamkorlik qilish mahorati va san'atiga ega bo'lishi kerak.

Bu vazifa odamlarni muomala va muloqot etikasiga o'rgatishni har qachongidan ham dolzarb qilib qo'yimoqda. To'g'ri, muloqotga kirishish - ijtimoiylashuv jarayonida barcha sifatlardan oldinroq shakllanadigan qobiliyatlardan, u tabiiy va hayotiy narsa. Bola tili juda yaxshi chiqib ulgurmay, atrofida gilar bilan aktiv muloqotga kirisha boshlaydi. Lekin masalaning paradoksal tomoni ham shundaki, yillar o'tgan sari ongli, aqlli odam har bir gapini o'ylab gapiradigan, har bir qadamini o'ylab bosadigan bo'lib qoladi, bu uning jamiyatdagi mavqesini belgilovchi vositadir. Bu muloqotga kirishishga ruhan tayyorlanishning ahamiyatini ham odam anglashini taqozo etadi. Shunday qilib, ana shu eng tabiiy va bir qarashda oddiy inson faoliyati shu qadar murakkab va serqirradi, uning mexanizmlarini o'rganish, guruhlarda to'g'ri munosabatlarni tashkil etish va odamlarni samarali muloqotga o'rgatish muammosi bugungi ijtimoiy psixologiya ning muhim masalalaridandir.

Ma'lumki, gaplashayotgan odamlar biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir - birini to'ldirishiga bog'liq ekan. Noto'g'ri tasavvurlardan biri shuki, odamni muomala yoki muloqotga o'rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so'zlardan foydalanib, ta'sirchan gapirishga o'rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni - tinglash qobiliyatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi "Yaxshi suhbatdosh - yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir" deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi.

Mutaxassislarning aniqlashlaricha, ishlayotgan odamlar vaqtining 45%i tinglash jarayoniga ketar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda bo'ladiganlar 35 - 40 % oylik maoshlarini odamlarni "tinglaganlari" uchun olarkanlar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kommunikasiya ning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga ko'proq foyda keltirarkan.

Shuning uchun bo'lsa kerak, nemis faylasufi A. Shopengauer "Odamlarni o'zingiz to'g'ringizda yaxshi fikrga ega bo'lishlarini xohlasangiz, ularni tinglang" deb yozgan ekan. Darhaqiqat, agar siz kuyunib gapirsangizu, suhbatdoshingiz sizni tinglamasa, boshqa narsa bilan ovora bo'laversa, undan ranjiysiz, nafaqat ranjiysiz, balki u bilan aloqani ham uzasiz. O'qituvchi gapirayotgan paytda uni tinglamaslik odobsizlikning eng keng tarqalgan ko'rinishi deb baholanishini bilasizmi?

Nima uchun biz ko'pincha yaxshi gapiruvchi, so'zlovchi bo'la olamiz-u, yaxshi tinglovchi bo'la olmaymiz? Psixologlarning fikricha, asosiy xalaqit beruvchi narsa - bu bizning o'z fikr - o'ylarimiz va xohishlarimiz og'ushida bo'lib qolishimizdir. Shuning uchun ham ba'zan rasman sherigimizni tinglayotganday bo'lamiz, lekin aslida hayolimiz boshqa erda bo'ladi. Tinglashning ham xuddi gapirishga o'hshash texnikasi, usullari mavjud. Ularning turi ham ko'p, lekin asosan biz kundalik hayotda uning ikki usulini qo'llaymiz: so'zma - so'z qaytarish va boshqacha talqin etish. Birinchisi, suhbatdosh so'zlarining bir qismini yoki yaxliticha qaytarish orqali, sherikni qo'llab - quvvatlashni bildiradi. Ikkinchi usul esa - sherigimiz so'zlarini tinglab, undagi asosiy g'oyani muxtasar, o'zimizning talqinimizda ifoda etish. Ikkala usul ham sherik uchun muhim, chunki u sizning tinglayotganingizni, xattoki, undagi g'oyalarga qarshi emasligingizni bildiradi. Bunday tashqari, biz yaxshi tinglayotgan bo'lib, "Yo'g'e?", "Nahotki?", "qara-ya?", "YAsha!" luqmalari bilan ham suhbatdoshimizni gapirishga, yanayam o'z fikrlarini oydinlashtirishga chaqirib turamiz.

Demak, aslida bizdagi gapirayotgan shaxs etakchi, u so'zhatning mutloq xokimi, degan tasavvur unchalik to'g'ri emas. Yaxshi tinglashda ham shunday kuch borki, u so'zhatdoshni Sizga juda yaqinlashtiradi, ishonchni tug'diradi. Chunki muloqot jarayonidagi eng qimmatli narsa - bu axborotning o'zi. Tinglayotgan odam ma'nili, yaxshi dialogdan faqat yaxshi, foydali ma'lumot oladi. Gapirgan esa aksincha, o'zidagi borini berib, gapirmaydigan so'zhatdoshdan "teskari aloqani" olib ulgurmay, hech narsasiz qolishi ham mumkin. Shuning uchun muloqotga o'rgatishning muhim yo'nalishlaridan biri - odamlarni faol tinglashga, bunda barcha paralingvistik va noverbal omillardan o'rinli foydalanishga o'rgatishdir.

Professional tinglash texnikasiga quyidagilar kiradi:

- aktiv holat. Bu - agar kreslo yoki divan kabi mebel bo'lsa, unga bemalol yastanib yoki yotib olmaslik, suhbatdoshning yuzidan tashqari joylariga qaramaslik, mimika, bosh chayqash kabi harakatlar bilan uning har bir so'ziga qiziqayotganligingizni bildirishni nazarda tutadi;
- suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish. Bu nafaqat suhbatdoshni o'ziga jalb qilib, balki keyin navbat kelganda o'zining har bir so'ziga uni ham ko'ndirishning samarali yo'lidir.
- o'ychan jimlik. Bu suhbatdosh gapirayotgan paytda yuzda mas'uliyat bilan tinglayotganday tasavvur qoldirish orqali o'zingizning suhbatdan manfaatdorligingizni bildirish yo'li.

Agar biz suhbatdoshimizni yaxshi, diqqat bilan tinglasak, bu bilan biz unda o'z - o'ziga xurmatni ham tarbiyalaymiz. Demak, tinglash jarayoni ko'pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas ekan. Uning muloqotning samarali bo'lishidagi ahamiyati nihoyatda katta. Chunki tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar, g'oyalarning shakllanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun ma'ruzachi professorning har bir chiqishi va ma'ruzasi agar talabalar tomonidan diqqat bilan tinglansa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yutadi.

Agar muloqot jarayonida ishtirok etuvchi ikki jarayon - gapirish va tinglashning faol o'zaro ta'sir uchun teng ahamiyatini nazarda tutsak, bu jarayon qatnashchilarining psixologik savodxonligi va muloqot texnikasini egallashining ahamiyatini anglash qiyin bo'lmaydi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada odamlarni samarali muloqotga ataylab o'rgatishga juda katta e'tibor beriladi. Bu boradagi fanning o'z uslubi bo'lib, uning nomi ijtimoiy psixologik trening (IPT) deb ataladi. IPT - muloqot jarayoniga odamlarni psixologik jihatdan hozirlash, ularda zarur kommunikativ malakalarni maxsus dasturlar doirasida qisqa fursatda shakllantirishdir. Eng muhimi IPT mobaynida odamlarning muloqot borasidagi bilimdonligi ortadi.

Amaliy muloqot treningi - IPTning bir ko‘rinishi bo‘lib, u yoki bu professional faoliyatni amalga oshirish jarayonida zarur bo‘ladigan kommunikativ malaka, ko‘nikma va bilimlarni hosil qilishga qaratilgan tadbirdir. Guruh va jamoalarda muloqot treningi vositasida muzokaralar olib borish, ish yuzasidan hamkorlik qilish yo‘l - yo‘riqlarini birgalikda topish, katta auditoriya oldida so‘zlashga o‘rgatish, majlislar o‘tkazish, janjalli, konfliktli holatlarda o‘zini to‘g‘ri tutish malakalari hosil qilinadi. Bunday asosiy narsa - trening qatnashchilari ongiga birovlarini tushunish, o‘zini o‘zga o‘rniga qo‘ya olish, boshqalar manfaatlari bilan o‘zinikini uyg‘unlashtira olish g‘oyasini singdirishdir. Treninglar mobaynida guruhviy munozaralar, rolli o‘yinlarning eng optimal variantlari sinab, mashq qilinadi.

Demak, ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda muloqotning barcha vositalariga, ayniqsa, nutqqa e‘tibor berish kerak. Bolalarni ilk yoshlik chog‘laridanoq nutq madaniyatiga o‘rgatish, nutqlarini o‘stirish choralarini ko‘rish zarur. Pedagog esa shunday nutq madaniyatiga ega bo‘lishi kerakki, u avvalo uning faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishni ta‘minlasin, qolaversa, bolalarda nutqning o‘shishiga imkoniyat bersin.

Muloqotning bu xususiyati kishilarning muloqot jarayonida birgalikdagi faoliyatda bir-birlariga amaliy jihatdan bevosita ta‘sir etishlarinn ta‘minlaydi. Shu tufayli odamlar hamkorlikda ishlash, bir-birlariga yordam berish, bir-birlaridan o‘rganish, harakatlar muvofiqligiga erishish kabi qator qobiliyatlarini namoyon etishlari mumkin. Shu tufayli o‘qituvchi bola shaxsiga maqsadga yo‘nalgan holda ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Aslini olganda, har qanday muloqot, agar u bema‘ni, maqsadsiz, quruq gaplardan iborat bo‘lmasa, doimo muloqotga kirishuvchilarning xulq-atvorlarini, ularning ustanovkalarini o‘zgartirish imkoniyatiga ega.

Jamiyat miqyosida oladigan bo‘lsak, odamlarning turli sharoitlarda o‘zlarini tutishlari, xulq-atvorlarining boshqarilishi ma‘lum psixologik qonuniyatlarga bog‘liqligini ko‘rish mumkin. Bunga sabab jamiyatda qabul qilingan turli normalar, qonun-qoidalaridir. Chunki, o‘zaro muloqot va o‘zaro ta‘sir jarayonlarida shunday hatti-harakatlar obrazlari kishilar ongiga singib boradiki, ularni har bir kishi norma sifatida qabul qiladi. Masalan, o‘smir bola, umuman yoshlar jamoat joylarida kattalarga o‘rin bo‘shatib berishlari kerakligi ham xulq-atvorning bir normasi. Shu

normaga amal qilish yoki qilmaslik ijtimoiy nazorat tizimi orqali boshqariladi. Ya'ni, yuqoridagi sharoitda agar o'smir bola avtobusda qariyaga joy bo'shatmasa, jamoatchilik o'sha zahoti uni ijtimoiy tartibga chaqiradi. Demak, har bir shaxs turli sharoitlarda turlicha rollarni bajaradi, bu rollarning qanday bajarilayotganligi, odamlarning kutishlariga mos kelishligi ijtimoiy nazorat tizimi orqali kuzatib turiladi. Shuning uchun ham muloqotga kirishgan kishilar doimo o'z xulq-atvorlarini, qolaversa, o'zgalarning xulq-atvorini nazorat qilib, harakatlarda bir-birlariga moslashadilar. Lekin gohida shaxsdagi rollarning ko'p bo'lishi rollarning ziddiyatiga olib kelishi mumkin. Masalan, maktab o'qituvchisining o'zi o'qitayotgan sinfda farzandi bo'lsa, dars paytida shunday ziddiyatni boshdan kechirishi mumkin, ya'ni bir vaqtning o'zida ham ota yoki ona, ham o'qituvchi rolini bajarishga majbur bo'ladi. Yoki xulqi yomon o'quvchining uyiga kelgan o'qituvchi bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi, ham mehmon rollari o'rtasida qiynaladi.

Turli rollarni bajarayotgan shaxslarning o'zaro muloqotlari kutishlar tizimi orqali boshqariladi. Masalan, xohlaydimi yoki xohlamaydimi, o'qituvchidan ma'lum harakatlarni kutishdiki, ular o'qituvchi roliga zid bo'lmasligi kerak. O'z rollariga mos harakat qilgan, doimo me'yoriy mezonida ish tutgan kishining harakatlari odobli harakatlar deb ataladi. Masalan, o'qituvchining odobi, o'z kasbini ustasi ekanligi, bolalar qalbini tushuna olishi, ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ish tutishi uning odobga ega ekanligining belgisidir. Odobsiz odam esa buning aksidir.

Demak, o'zaro muloqot jarayonida bir odam ikkinchi odamga psixologik ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir ikkala tomondan ham anglanishi yoki anglanmasligi mumkin. Ya'ni, ba'zan biz nima uchun bir shaxsning bizga naqadar kuchli ta'sirga ega ekanligini, boshqa biri esa, aksincha, hech qanday ta'sir kuchiga ega emasligini tushunib yetmaymiz. Bu esa pedagogikada muhim muammodir. Har bir pedagogning o'z ta'sir uslublari va ta'sir kuchi bo'ladi. O'qituvchi shaxsining bolalarga ta'siri quyidagi eksperimentda juda yaqqol kuzatilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga anchagina o'yinchoqlar berib, shularning ichida faqat bittasiga, qizil yog'och o'yinchoqqa tegmaslik aytilgan. Bolalar yolg'iz qoldirilib, harakatlari pinxona

kuzatilgan. Juda ko'p bolalar taqiqlangan o'yinchoqqa baribir tegishgan. Eksperimentning ikkinchi seriyasida esa endi barcha o'yinchoqqa tegish mumkin-u, faqat qizil qutichaning qopqog'ini ochish mumkin emas, deb aytilgan. Shu quticha tepasiga esa shu bolalarning o'qituvchisi surati ilib qo'yishgan. Bu seriyada birinchisiga qaraganda "ta'qiqni buzuvchilar" soni keskin kamaygan. Demak, bu narsa o'qituvchi shaxsining bola harakatlariga ta'sirini yaqqol isbotlab turibdi.

Shaxslararo ta'sir haqida gap ketganda, o'qituvchi obro'yining roli haqida ham aytish lozim. Chunki, obro'li odam doimo o'sha obro' qozongan guruhida o'z mavqeiga va ta'siriga ega bo'ladi. Shaxs obro'yi uning boshqa shaxslarga irodaviy va emotsional ta'sir ko'rsata olish qobiliyatidir. Ma'lumki, obro' amal yoki hayotiy tajriba bilangina orttirilmay, uning haqiqiy asosi — shaxsning odamlar bilan to'g'ri munosabati, undagi odamiylik xislatlarining, boshqa ijobiy xislatlarining uyg'unlashuvidadir. Psixologik obro' — ta'sir ko'rsatishning eng muhim mezonidir.

Muloqot jarayonida odamlar bir-birlari bilan ma'lumotlar almashib, o'zaro ta'sir ko'rsatibgina qolmay, balki bir-birlarini to'g'riroq va aniqroq anglashga, tushunishga va idrok qilishga harakat qiladilar. Bu tomon shaxsiy idrok va tushunish muammosi bilan bog'liqdir. Birgalikdagi faoliyat jarayonida shaxslarniig bir-birlarini to'g'ri tushunishlari na aniq idrok qilishlari muloqotning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Rus psixologi A.A. Bodalev boshchiligidagi laboratoriya bir-birlarini idrok qilish mexanizmlarini aniqlash borasida qator psixologik qonuniyatlarni kuzatgan. Bunday mexanizmlarga:

- identifikatsiya;
- refleksiya;
- stereotipizatsiya kiradi.

Identifikatsiya shunday psixologik hodisaki, bunda suhbatdoshlar bir-birlarini to'g'riroq idrok qilish uchun o'zlarini bir-birlarining o'rniga qo'yib ko'rishga harakat qiladilar. Ya'ni, o'zidagi bilimlar, tasavvurlar, hislatlar orqali boshqa birovni tushunishga harakat qilish, o'zini birov bilan solishtirish (ongli yoki ongsiz) identifikatsiyadir. Masalan, birinchi marta uchrashuvga ketayotgan yigitning ichki holatini uning o'rtog'i yoki akasi tushunishi mumkin. Refleksiya muloqot jarayonida

suhbatdoshning pozitsiyasidan, xolatidan turib, o'zini tasavvur qilishdir, ya'ni refleksiya, boshqa odamning idrokiga taallukli bo'lib o'ziga bironing ko'zi bilan qarashga intilishdir. Chunki, busiz odam muloqot jarayonida o'zini aniq bilmasligi, noto'g'ri muloqot formalarini tanlashi mumkin.

Stereotipizatsiya odamlar ongida mulokotlar mobaynida shakllanib o'rnashib kolgan ko'nikib kolingan obrazlardan shablon sifatida foydalanish xollaridir. Ijtimoiy stereotiplar har bir shaxsda u yoki bu guruhli kishilar haqida shakllangan obrazlardir. A.A. Bodalev va uning shog'irdlari bunday stereotiplar ba'zan muloqotni to'g'ri yo'nalganligini ta'minlasa, boshqa hollarda esa undagi xatoliklarning sababi bo'lishi mumkinligini kuzatishgan. Idrok va tushunish borasidagi bunday xatoliklar kauzal atributsiya (lotinchasiga "kauza" — sabab, "atrebutio" — bermoq, qo'shib bermoq ma'nosini bildiradi) deb ataladi. Masalan, o'qituvchi bilan hamsuhbat bo'lib qolgan odamda suhbat boshidayoq "hozir odob-ahloqdan dars berishni boshlamasmikan" degan shubha paydo bo'lishi mumkin. Bu ham stereotip. Bundan tashqari, odamlar birinchi marta ko'rgan odam to'g'risida tasavvurga ega bo'lish maqsadida uning tashqi qiyofasi bilan xarakteri o'rtasida bog'liqliklar o'rnatishga harakat qilarkan, shunday bog'liqliklarni aniqlash maqsadida A.A. Bodalev talabalar guruhiga turlicha qiyofali shaxslarning fotosuratlarini ko'rsatgan. 72 kishidan 9 tasi iyagi katta kishilar kuchli iroda egalari ekanligini, 17 tasi peshonasi keng odamlar aqlli ekanliklarini, 3 kishi sochi qattik odamlarning qaysarroq, qat'iy ekanliklarini, 5 kishi kichik bo'yli odamlar hokimiyatga intilgan, boshqalar ustidan buyruq berishga moyil, chiroyli odamlar yo o'ta o'ziga bino qo'ygan yoki nodon bo'lishligini aytishgan va hokazo.

Tabiiyki, bunday fikrlar mutlaq to'g'ri emas, lekin kishilar ongida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan tasavvurlar shunday obrazlarni shakllantirgan. Notanish odam haqida tushunchaning shakllanishida u haqida berilgan birlamchi ma'lumot katta rol o'ynaydi. Masalan, talabalarning ikki guruhiga bir xil portret ko'rsatib, birinchi guruhda bu odam yirik olim, ikkinchisida esa, bu — davlat jinoyatchisi deb, unga ikkala holda ham ijtimoiy-psixologik xarakteristika berishlarini so'ragan. Ko'rsatmalar har xil bo'lganligi sababli berilgan ta'riflar ham har xil bo'lgan. Birinchi guruhdagi talabalar bu odam mehnatkash, mehribon, shafqatli, g'amxo'r, aqlli bo'lsa kerak,

deyishgan bo'lsa, ikkinchi guruhdagilar uni – beshafqat, makkor, qat'iyatli deb ta'riflashgan. Birinchi guruhdagilar portretidagi ko'zlarni dono, muloyim deyishgan bo'lsa, boshqalar ularni yovuz, beshafqat deb aytishgan.

Shunday qilib, ijtimoiy persepsiya yoki odamlarning bir-birlarini to'g'ri idrok etish va tushunish jarayoni muloqotning muhim muammolaridan biridir. Bu jarayon psixologik jihatdan murakkab bo'lib, unda muloqotga kirishayotgan tomonlarning har biri alohida ana shu idrokning ham ob'yekti, ham sub'yekti bo'lib faoliyat ko'rsatadilar. Idrokning ob'yekti sifatida shaxs qaralganda, unda hosil bo'ladigan "boshqa odam obrazi" ning barcha sifatlari va qirralari nazarda tutiladi. Bunday obraz paydo bo'lishiga xizmat qiladigan belgilarga: o'sha odamning tashqi qiyofasi, uning qiyinishi, o'zini tutishi, hissiy holati, ovozi, nutqi, qiliqlari, yurishi va hokazolar kiradi. Lekin shularning ichida odamning yuzi muloqot mobaynida suhbatdoshga eng ko'p ma'lumot beradigan ob'yektdir. Shuning uchun ham telefonda suhbatlashgandan ko'ra yuzma-yuz suhbatlashish ancha oson va axborotlarga boydir.

Har qanday muloqotning eng elementar funksiyasi – suhbatdoshlarning o'zaro bir – birini tushunishlarini ta'minlashdir. Bu o'zbeklarda samimiy salom –alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O'zbek halqining eng nodir va buyuk xislatlaridan biri ham shuki, o'yiga birov kirib kelsa, albatta ochiq yuz bilan kutib oladi, ko'rishadi, xol – ahvol suraydi.

Uning ikkinchi muhim funksiyasi ijtimoiy tajribaga asos solishdir. Odam bolasi faqat odamlar davrasida ijtimoiylashadi, o'zigazarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi. Muloqotning yana bir muhim vazifasi – u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan odamni qo'li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o'zigagina manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan, ko'plab tadqiqotlarda izolyatsiya, ya'ni odamni yolg'izlatib qo'yishning uning ruhiyatiga ta'siri o'rganilgan.

2.2. O'quvchi hayotida muloqot va nutqning o'rni

Bugungi kunda nutq madaniyati kursi barcha o'quv maskanlarida va oliy o'quv yurtlarida o'rgatilishi quvonarlidir. Nutq madaniyati hozirgi davr tilshunoslik fanining dolzarb masalalaridan biridir. Chunki, til va nutq har ikkala soha inson nutqi bilan aloqadadir. Har ikkalasi ham kishilar nutqiy faoliyatining foydali ta'sirchan, o'tkir bo'lishi uchun kurashadi, insonning nutqiy madaniyati, uning nutqiy holatini o'stirishga xizmat qiladi. Nutq madaniyati ham, notqlik ham nutqiy odam, nutqiy go'zallik, nutqiy mantiq qoidalaridan oziqlangan holda ish ko'radi.

Muloqotda nutq muhim o'rin tutadi, ayniqsa, uning ravonligi, atamalarning o'z joyida va to'g'ri ishlatilishi va hokazolar. Nutq

eshittirilib, yo ovoz chiqarmasdan aytilishi yoki kar-soqov kishilarda biron-bir mohiyatga ega bo'lgan imo-ishoralar bilan almashtirilishi mumkin. Muloqotda axborot beruvchi bilan axborot qabul qiluvchi o'rtasida o'zaro hamkorlik yuzaga keladi. Axborot shaxsning tashqi ko'rinishi, kiyimi, mimikasi, ovozi, tez gapirishi yoki salmoqlab gapirishiga bog'liq bo'ladi. Shaxs axborotni ikkinchi bir shaxsga nutq orqali berish bilan birga, jest, mimikalarni qo'shib beradi yoki u yozma usulda, ko'rgazmali shaklda ham bo'lishi mumkin. Muloqot davomidagi emotsional

Holat muloqotga kirishayotgan shaxsning xatti-harakatiga ta'sir qiladi. Ko'p hollarda muloqotda majburiylik bo'ladi, ya'ni guvoh va gumon qilinuvchi muloqot qilishga majbur, buning ustiga, qonunga asosan, muloqot qilmasa, shaxs jazolanishi mumkin. Muloqotdagi har bir fakt shaxs ongi orqali amalga oshadi, eng asosiysi, bu faktlar shaxslarda ba'zi bir narsalarni bo'rttirib ko'rsatishga olib kelishi mumkin. Ba'zan muloqotga kirishayotgan shaxs o'z maqsadini yashiradi, natijada ma'lum bir vaqtdan keyin uning bu maqsadi yuzaga chiqadi. Har bir muloqotda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining bir necha maqsadlari, ya'ni dalillarni yana bir marotaba aniqlash, o'zidagi bor dalillarni boyitish, shaxsning yuqoridagi voqealarga aloqadorligi qay darajada ekanligidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Muloqot doimo inson xarakteri bilan bog'liq bo'ladi, masalan, shaxs janjalkash bo'lishi mumkin, bu janjal ziddiyatlarning natijasida yuzaga keladi yoki shaxsning ziddiyatni keltirib chiqaradigan holatlarini o'rganish kerak bo'ladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlashimiz mumkinki, muloqot, avvalambor,

O'quvchilar faoliyatida yetakchi o'rinni egallaydi. Muloqot jarayonida obyektning maxsus tomonlarining borligi ham muhim hisoblanadi. Shuni aytish joizki, ko'p hollarda bunday shaxslar jamiyatdagi axloqsiz, odobsiz va vijdotsiz kishilardir. Muloqot jarayonida har xil psixologik to'siqlar mavjud. Ko'proq ular sun'iy ravishda vujudga keladi.

Muloqot jarayonida quyidagi psixologik to'siqlar mavjud:

- 1) motivatsion to'siqlar;
- 2) aqliy (intellektual) to'siqlar;
- 3) emotsional to'siqlar;
- 4) tarbiyaviy jarayondagi to'siqlar.

Motivatsion to'siqlar shaxslarning muloqotga kirishishdan bosh

tortishi, muomalani to'g'ri, aniq ko'rinishda olib borilishini xohlamasligi jarayonida namoyon bo'ladi. *Aqliy to'siqlar* shaxsning xodimga nisbatan bilim doirasining kengligi, mantiqiy fikrlashining chuqurligi va huquqiy savodxonligi mazmunan boy bo'lgan taqdirda yuzaga keladi. *Emotsional to'siqlar* muloqotga kirishuvchilarning psixologik va emotsional-irodaviy holatlaridan kelib chiqadi (agressivlik, qo'rquv, asabiylashish, xo'rlanish va boshqalar).

Nutq faoliyati — odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish, anlodlarga berish (uzatish) yoki kommunikatsiya o'rnatish, o'z shaxsiy qarakatlarini rejalashtirish va amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir.

Nutq axborot, xabar, ma'lumot va yangi bilim berish aqliy topshiriqlarni echish faoliyatidan iboratdir. Agarda til aloqa vositasi (quroli) bo'lsa, nutq esa aynan o'sha jarayonning o'zidir.

Qadimgi ajdodlarimizning nutqi va nutq faoliyati hozirgi zamon kishilarida qanday funktsiyani bajarayotgan bo'lsa, o'sha davrda ham xuddi shunday vazifani ijro etgan. U davrlarda axborotlar, ma'lumotlar ko'lami tor bo'lganligi tufayli insonlar noverbal nutqdan ko'p davrlar muvaffaqiyatli foydalanib kelganlar. Avlodlar tarbiyasi ma'lumotlar uzatish noverbal nutq orqali amalga oshirilgan, ijtimoiy va xususiy

(shaxsiy) fikr uzatish hamda qabul qilish ana shu tariqa namoyon bo'lgan, tobora takomillashib borgan.

Biz nutq yordamida bir-birimizga ta'sir qilamiz. Nutq gapirayotgan kishining ongida va kalbida bo'lgan fikr va maqsadini ifoda qiladi. Biz nutq yordamida bir-birimizga ta'sir qilamiz. Nutq gapirayotgan kishining ongida va qalbida bo'lgan fikr maqsadini ifoda qiladi. Biz nutq vositasi bilan bironi xursand qilamiz yoki unga tassalli berishimiz mumkin. Nutqning kuchi haqida xar bir xalqda alohida maqollarni bo'lishi xam bejiz emas. Bu maqollar nutqning kishi ruxiga qanday ta'sir qilish kuchiga ega ekanligini yaqqol ko'rsatadi. Masalan, «Yaxshi so'z-jon ozig'i», «Sevdigan xam til, bezdirgan xam til» va xakazo.

Kishilar bir-birlari bilan muomala, munosabatda bular ekanlar, ular u yoki bu tildagi (o'zbek rus, frantsuz, nemis, va k.) grammatik qoidaga asoslangan so'zlardan foydalanadilar. Insonlarning til vositasida bir-birlari bilan muommala qiladilar.

Demak nutq til yordamida bir-birlari bilan aloqa qilish vositasidir.

«Nutq» va «til» terminlarining ma'nosini ko'pincha bir-biriga aralashtirib yuboradilar. Nutq bilan til bir narsa emas. Til so'z belgilari sistemasidan iborat bo'lib, u aloqa quroli bo'lsa, nutq aloqa jarayonining o'zidir. Lekin ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Ular birgalikda mavjuddir. Xar bir til tarixiy taraqqiyot davomida odamlarning nutq yordamida aloqa bog'lash jarayonida vujudga kelgan, rivojlangan va takomillashib borgan. Xar qanday tilning mavjud bo'lishi, takomillashib borishi kishilarning o'sha tilda doimiy gaplashib turishga bog'liq. Agar kishilar u yoki bu tilni nutq orqali biladigan muomalada ishlatmay qo'ysalar u til inqirozga uchraydi, «o'lik til»ga aylanib qoladi. Nutq faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasigina bo'lib qolmasdan, balki tafakkur qilishning zaruriy vositasi, tafakkur kurolidir. Chunki biz fikr qilish uchun so'zdan foydalanamiz, fikrimizni so'z bilan ifoda qilamiz va boshqalarning fikrini bilib olamiz. Odatda biz ovoz chiqarib yoki ovoz chikarmasdan, zz ichimizdan tilning grammatika qoidalarga xos xolda aytiladigan so'zlar orqali fikr yuritamiz. Tafakkur bilan nutq turli xodisa bo'lsa xam, lekin ular bir-biri bilan uzviy ravishda bog'lanib ketgan. Xap bir kishidagi tafakkurning o'sishi shu kishi nutqining

rivojlanishi bilan bog'liq bo'lganidek kishi nutqining rivojlanishi xam undagi tafakkurning o'sishiga bog'liqdir.

Birok keyingi yillarda fiziologik va psixologik olimlar (P.K. Anoxin, A.R.Luriya, A.N.Leontev, D.N.Uznadze va boshkalar) tomonidan amalga oshirilgan kator ilmiy tadqiqot ishlaridan ma'lum bo'lishicha, nutq faoliyatining fiziologiya asosini yuqorida ko'rsatilganidek talqin etish etarli emas. Balki bosh miya po'stining boshqa markazlari kabi, nutq markazlarining xam katiy chegaralari yo'q va bir-biridan ajralgan xolda xarakat kilmaydi.

P.K.Anoxin tadqiqotlarida xosil qilingan ma'lumotlar nuqtai nazaridan olganda, nutq faoliyatining fiziologik asosini bir necha funktsional sistemalarning murakkab uyushmasi tashkil etadi, bu funktsional sistemalardan ayrimlari nutq uchun ixtisoslashgan sistema bo'lsa, boshqalari o'zga faoliyatlar uchun xam xizmat qila beradi.

Kishi nutq orqali boshqalar bilan munosabatda bo'lar ekan, buni albatta ikkinchi signal sistemasi orqali amalga oshiradi. Shuning uchun xam vaqtli bog'lanishlar vujudga keladi. Bu esa uzining qator xususiyatlariga ega bo'ladi. Eshirilgan so'zarning xammasi esda saqlanib qolavermaydi. Ikkinchi signal sistemasi tanlab esda olib qoladi.

Nutq va nutq faoliyati yuzasidan bildirilgan mulohazalar, ilgari surilgan ayrim g'oyalar mutlaqlikka da'vo emas albatta, chunki ularning ko'pgina jixatlari, qirralari, mexanizmlari, qonuniyatlari, tavsiflari chuqurroq izlanishni talab qiladi, ayrim o'rinlarda ularning har birini eksperimental tadqiq etishni taqozo qiladi, yangi metodikalar, testlar, treninglar ishlab chiqishni izlanish predmetiga olib kiradi, amaliy va nazariy muammolar echimini tezroq hal qilishga safarbar etadi, nutqning muomala jarayonidan kelib chiqib yondashish evaziga qiymatli materiallar to'plash mumkin hamda uning negizida har qaysi psixolog mutaxassisni notiqyaik san'atiga o'rgatish kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga muhim xissa bo'lib qo'shiladi.

2.3. Ta'lim jarayonida o'quvchilar muloqot va nutqining osishi

Muloqot - odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya'ni, har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatlari (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va boshqalar) o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Bir qarashda osongina tuyulgan shaxslararo muloqot aslida juda murakkab jarayon bo'lib, unga odam hayoti mobaynida o'rganib boradi. Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida B.F. Parigin shunday yozadi: «Muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quyidagilar kiradi:

- a) individlarning o'zaro ta'sir jarayoni;
- b) individlar o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni;
- v) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;
- g) bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni;
- d) bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati;
- ye) shaxslarning bir-birlarini tushunishi jarayoni».

Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlarini, xattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lgan odam o'zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo'lolmaydi. Shuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funkqiylarini tahlil qilamiz.

Har qanday muloqotning eng elementar funksiyasi - suhbatdoshlarning o'zaro bir - birini tushunishlarini ta'minlashdir. Bu o'zbeklarda samimiy salom - alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O'zbek xalqining eng nodir va buyuk hislatlaridan biri ham shuki, uyiga birov kirib kelsa, albatta ochiq yuz bilan kutib oladi, ko'rishadi,

so'rashadi, xol - ahvol so'raydi. Shunisi xarakterliki, ta'ziyaga borgan chog'da ham ana shunday samimiyatli qabulni his qilamiz.

Uning ikkinchi muhim funksiyasi ijtimoiy tajribaga asos solishdir. Odam bolasi faqat odamlar davrasida ijtimoiylashadi, o'ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi. Odam bolasining yirtqich hayvonlar tomonidan o'g'rilanib ketilishi, so'ng ma'lum muddatdan keyin yana odamlar orasida paydo bo'lishi faktlari shuni ko'rsatganki, «mauglilar» biologik mavjudot sifatida rivojlanaveradi, lekin ijtimoiylashuvda ortda qolib ketadi. Bundan tashqari, bunday xolat boladagi bilish qobiliyatlarini ham cheklashi ko'plab psixologik eksperimentlarda o'z isbotini topdi.

Muloqotning yana bir muhim vazifasi - u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan odamning qo'li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o'zigagina manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan, ko'plab tadqiqotlarda izolyatsiya, ya'ni odamni yolg'izlatib qo'yishning uning ruhiyatiga ta'siri o'rganilgan. Masalan, uzoq vaqt termokamerada bo'lgan odamda idrok, tafakkur, xotira, hissiy xolatlarning buzilishi qayd etilgan. Lekin ataylab emas, taqdir taqozosi bilan yolg'izlikka mahkum etilgan odamlarning maqsadli faoliyatlar bilan o'zlarini band etishlari u qadar katta salbiy o'zgarishlarga olib kelmasligini ham olimlar o'rganishgan. Lekin baribir har qanday yolg'izlik va muloqotning yetishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, xadiksirash, xavotirlanish, o'ziga ishonchsizlik, qayg'u, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. Shunisi qiziqki, yolg'izlikka mahkum bo'lganlar ma'lum vaqt o'tgach ovoz chiqarib, gapira boshlasharkan. Bu avval biror ko'rgan yoki his qilayotgan narsasi xususidagi gaplar bo'lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehtiyoji paydo bo'lar ekan. Shaxsning muloqotga bo'lgan ehtiyojining to'la qondirilishi uning ish faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Odamlar, ularning borligi, shu muhitda o'zaro gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti ko'pincha odamni ishlash qobiliyatini ham oshirarkan, ayniqsa, gaplashib o'tirib qilinadigan ishlar, birgalikda yonma - yon turib bajariladigan operatsiyalarda odamlar o'z oldida to'rgan hamkasbiga qarab ko'proq, tezroq ishlashga kuch va qo'shimcha iroda topadi. To'g'ri, bu hamkorlikda o'sha yonidagi odam unga yoqsa, ular o'rtasida

o'zaro simpatiya hissi bo'lsa, unda odam ishga «bayramga kelganday» keladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun ham amerikalik sotsiolog hamda psixolog Jon Moreno asrimiz boshidayoq ana shu omilning unumdorlikka bevosita ta'sirini o'rganib, sotsiometrik texnologiyani, ya'ni so'rovnoma asosida bir - birini yoqtirgan va bir - birini inkor qiluvchilarni aniqlagan va sotsiometriya metodikasiga asos solgan edi.

Shunday qilib, muloqot odamlarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi. Qolaversa, hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki kollegial - birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo'lganligini hisobga olsak, odamlarning muomala madaniyati va muloqot texnikasi mehnat unumdorligi xamda samaradorlikning muhim omillaridandir.

Muloqot jarayoni o'ziga xos ravishda murakkab bo'lib, bunda uch xil bosqich mavjud.

Dastlabki bosqich — odamning o'z-o'zi bilan muloqotidir. T. Shibutani "Ijtimoiy psixologiya" darsligida: «Agar odam ozgina bo'lsa ham o'zini anglasa, demak, u o'z-o'ziga ko'rsatmalar bera oladi»— deb to'g'ri yozgan edi. Odamning o'z-o'zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining harakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o'z-o'zi bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o'zini chetga tortib, tortinib yursa, demak u boshqalar bilan suhbatlashishda, til topishishda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, deyish mumkin. Demak boshqalar bilan muloqot— muloqotning ikkinchi bosqichidir.

Muloqotning hayotimizdagi shakl va ko'rinishlariga kelsak uning har bir shaxsning hayotiy vaziyatlarga mos keladigan, o'sha vaziyatlardan kelib chiqadigan ko'rinishlari va turlari haqida gapirish mumkin. Lekin umumiy holda har qanday muloqot yo rasmiy yoki norasmiy tusda bo'ladi. Agar rasmiy muloqot odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq-atvor normalaridan kelib chiqsa, masalan, rahbarning o'z qo'l ostida ishlayotgan xodimlar bilan muloqoti, professorning talaba bilan muloqoti va hokazo, norasmiy muloqot — bu odamning shaxsiy munosabatlariga tayanadi va uning mazmuni o'sha suhbatdoshlarnng fikr-o'ylari, niyat-maqсадlari va emotsional munosabatlari bilan belgilanadi. Masalan, do'stlar

suhbatdoshi, poyezdda uzoq safarga chiqqan yo'lovchilar suhbatlari, tanaffus vaqtida talabalarning sport, moda, shaxsiy munosabatlar borasidagi munozaralari. Odamlarning asl tabiatlariga mos bo'lgani uchun ham norasmiy muloqot doimo odamlarning hayotida ko'proq vaqtini oladi va bunda ular charchamaydilar. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, odamda ana shunday muloqotga ham qobiliyatlar kerak, ya'ni uning qanchalik sergapligi, ochiq ko'ngilligi, suhbatlashish yo'llarini bilish, til topishish qobiliyati, o'zgalarni tushunishi va boshqa shaxsiy sifatleri kundalik muloqotning samarasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun hamma odam ham rahbar bo'lolmaydi, ayniqsa, pedagogik ishga hamma ham qo'l uravermaydi, chunki buning uchun undan ham rasmiy, ham norasmiy muloqot texnikasidan xabardorlik talab qilinadi.

Muloqot mavzui va yo'nalishiga ko'ra, uning:

- ijtimoiy yo'naltirilgan (keng jamoatchilikka qaratilgan va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqadigan muloqot);
- guruhdagi predmetga yo'naltirilgan (o'zaro hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish jarayonidagi muloqot — mehnat, ta'lim jarayonidagi yoki konkret topshiriqni bajarish jarayonida guruh a'zolarining muloqoti);
- shaxsiy muloqot (bir shaxsning boshqa shaxs bilan o'z muammolarini ochish maqsadida o'rnatgan munosabatlari); pedagogik muloqot (pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o'rtasida amalga oshiriladigan murakkab o'zaro ta'sir jarayoni) turlari farqlanadi.

Muloqotning turi va shakllari turlichadir. Masalan, bu faoliyat bevosita «yuzma - yuz» bo'lishi yoki u yoki bu texnik vositalar (telefon, telegraf va shunga o'xshash) orqali amalga oshiriladigan; biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki do'stona bo'lishi; sub'yekt - sub'yekt tipli (dialogik, sheriklik) yoki sub'yekt - ob'yektli (monologik) bo'lishi mumkin.

Har bir muloqot turining o'z qonun-qoidalari, ta'sir usullari va yo'l-yo'riqlari borki, ularni bilish har bir kishining, ayniqsa odamlar bilan doimo muloqotda bo'ladiganlarning burchidir.

Inson xayotida nutk ma'lum davrda paydo bo'lib, taraqqiy eta boshlaydi. Bu taraqqiyot asosan uch davrga bulinadi. Birinchi davr - nutqni uzlashtirishdan oldingi davr. Bu ikki oylikdan un bir oylik davrgacha to'g'ri keladi. Ikkinchi davr - tilni dastlabki uzlashtirish davri. Bu un bir oylikdan bir yoshu etti oylik davrgacha davom etishi mumkin. Uchinchi davr - tilning grammatik tuzilishini uzlashtirish davri bo'lib, bu davr bir yoshu etti oylikdan 3 yoshgacha bulgan davrni o'z ichiga oladi. Bundan keyingi davrda bola nutqida printsipval jixatdan suz formalari kupayib borishi mumkin. Bola nutkining riiojlanishi uning butun psixik protsesslarining tarakkiyoti bilan boglik va bunga yashash sharoiti xam katta ta'sir etadi. Yangi tugilgan bolada xali nutq bo'lmaydi, unda qandaydir chinkiriq yig'lash xususiyati buladi. Bu ichki va tashki signallarga (issik-sovuklik ochlik tashnalik yoki biror joyining og'rishiga) boglikdir. Taxminan ikki oylik bo'lganda bolada «gu-gulash» boshlanadi. Ya'ni bola «gugu», «atu» kabi tovushlarni chikaradi. Ammo buni biror narsaga boglamasdan, shu tovushlarni chiqarishning uzidan mamnun bulganaek tuyuladi. Olti oylik bo'lganda esa, ayrim tovushlarni birlashtirib so'z chikaradigan bo'lib krladi va kattalarga ergashib suzning ma'nosiga tushunmasa xam uning intonatsiyasiga qarab payqab ola boshlaydi. So'z va gapning ma'nosini bola fakat bir yoshga tulgandan keyingina tushuna boshlaydi va bu yoshda uzi xam nutk egallash davrini utaydi. Bu davrda bolalar nutkida lugat sostavining sekin-asta oshib borishi sezila boradi. Dastlab bola biror bugin yoki so'zni aytish bilan uzining maksadini bildira boshlaydi, bu so'z tugal bir gan vazifasini bajaradi. Bolalarning tovushlarni notugri talaffuz qilishi xillari xam buladi. Masalan, R tovushi o'rniga, L, Sh urniga, S, K tovushlari talaffuz ztadi. Raqam o'rniga Lakam, ber o'rniga be, va xokazo.

Ba'zi bolalardagi toviushlarni talaffuz qilishdagi nuqsonlar maktab yoshida xam uchrab turadi. Bu ba'zan nutk apparatlarining nuksonlariga boklik bo'lib, buni maxsus mutaxassis vrachlar va logopedlar tuzatishi mumkin Ammo bolaning nutq apparata yaxshi ishlasa xam, nutqdagi fonetik nuqsonlar ota-ona, oiladagi katta yoshdagi kishilar tomonidan noto'g'ri tarbiya berilishi tufayli ancha vaqtgacha saklanib keladi. Asosan bu kattalarning bolalar tilida erkanib gapirishlaridan kelib chikadi. Bolalar talaffuzidagi kamchiliklarni o'z vaqtida tuzatilmasa ba'zan bolaning








duduqlanib qolishi va so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilishiga olib keladi. Kun sayin jismoniy jixatdan o'sayotgan bola aqliy, psixik tomondan xam takomillashib boradi. So'z boyligi borgan sari o'sa boradi. Xodisa va voqealar, narsalar nomini bildiradigan so'zlar, so'ngra fe'l, keyinchalik sifat va sonlar paydo bo'la boshlaydi. Masalan, ikki yashar bola taxminan 300-500 so'z egallagan bo'lishi mumkin. Ikki yosh bilan besh-etti yosh o'rtasida bolaning nutki tez o'sa boshlaydi va so'z boyligi 3-4 mingtaga etadi. Shu bilan birga uning tafakkuri xam rivojlana boradi. Bola ko'rgan, eshitgan narsalari to'g'risida ko'p savol beradi, yangi so'z va tushunchalarni egallay boshlaydi. Albatta, buning uchun bolaga tugri tarbiya berish, u bilan so'zlashish, ertaklar gapirib berish, kitob o'qib eshshtirish kerak. Nutqni uz vaqtida amaliy egallab olish va so'z boyligini o'stirish umuman maktabda sifatli o'qish uchun yaxshi zamin bo'ladi. Maktabda ukitiladigan barcha fanlar orkali ukuvchining lug'at sostavi boyib boradi, bolalar o'z nutqiga ongli munosabatda bo'ladi, bunda til va adabiyot darslari katta xissa qo'shadi. Chunki bu fanlar ukuvchilarga o'z nutqini muayyan grammatik talablarga javob bera oladigan kilib tuzish konunlarini o'rgatadi. Tabiiy fanlardan dars beruvchi ukituvchilar xam xar bir fikrni bayon qilishda grammatik qoidalarga rioya qilganlari xolda, anik ravon, logik jixatdan mukammal nutk orkali mashgulotni utkazishlari ukuvchilar nutkining usishiga, tafakkurning rivojlanishiga barakali ta'sir kursatadi.

O'quvchilar nutqining o'sishida ularning maktabda o'qishi ayniqsa katta rol o'ynaydi. O'quvchi maktabga kirmasdan oldin o'zi qanday gapirayotganligi ustida o'ylab o'tirmasdan, o'z nutqidan aloqa va bilish vositasi tariqasida foydalanadi. Maktabda o'qitilayotgan hamma fanlarni o'rganish va shu fanlar bilan shug'ullanish jarayonida o'quvchi nutqining lug'at boyoligi boyiydi, so'zlarning mazmuni chuqurlashadi. Har qaysi so'zning, har qaysi terminning ma'nosi aniqlanadi. Adabiyot darslari bilan shug'ullanish o'quvchilar nutqining o'sishida ayniqsa katta taesir qiladi.

O'quvchilarning yozma nutqni egallashlari ularning nutqini o'stirishda muhim bosqich hisoblanadi. Kitob o'qishva ayniqsa, o'zidagi fikrlarni yozma tarzda ifodalab, bayon qilib berish tilning grammatik tuzilishini egallamoq uchun katta ahamiyatga egadir. Yozma nutqni egallash og'zaki nutqni va ayniqsa, monolog nutqni to'g'ri va kengroq qilib tuzishga yordam qiladi. O'quvchi ovoz chiqarib o'z so'zlari bilan

takrorlash yoo'li bilan o'zining artikulyaqiya apparatini mashq qildiradi, o'z nutqining qay darajada to'g'riligini nazorat qiladi, shu bilan birga, o'zi o'zlashtirgan bilimlarning to'g'riligini va mustahkamligini ham nazorat qiladi.

Mazmunli to'liq fikrli, to'g'ri tuzilgan, uslub jihatidan chiroyli bo'lgan nutqni o'stirish maktabda o'quvchilarning o'qitish sohasida qo'ygan muhim vazifalarining biridir.



METODIKA 1.5.

Nutq va tafakkur rivojlanishining o'zaro munosabatlari:

Metodika sabab-oqibat bog'lanishlari xususiyatlarini va ob'ekt, hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish uchun qo'llaniladi. Bog'langan nutqning holati ham aniqlanadi.

Jihoz: 5 ta syujetli bog'langan rasmlar.

Ko'rsatma: bolaning oldiga 5 ta turli vaziyatli rasmlar noto'g'ri ravishda qo'yiladi: 2; 3; 1; 5; 4.

Rasmlarni vaziyat rivojlanishi mazmuniga binoan qo'yish taklif etiladi. "Rasmlarni tartib bilan qo'y". Tekshiruvchi vazifani bajaradi, eksperimentator bola faoliyatini kuzatadi.

Sabab-oqibat bog'lanishlari, ob'ekt, xodisalar o'rtasidagi munosabatlarni tushunish darajalari:

I daraja: rasmlarni ketma-ketligi bo'yicha xatosiz, qo'shimcha tuzatishlarsiz qo'ydi.

II daraja: 1 ta tuzatish kiritdi.

III daraja: 2 ta tuzatish kiritdi.

IV daraja: 1 ta xato qildi.

V daraja: rasmlarni xato qo'ydi yoki vazifani bajarishdan bosh tortdi.

So'ngra boladan rasmlar asosida hikoya tuzish so'raladi. "Rassom.... haqida rasm chizibdi. Shu voqeani so'zlab bering". Bola rad etsa, rasmlar bo'yicha suhbat olib boriladi, bu suhbat yozib olinadi, so'ngra tahlil qilinadi.

Bolaning og'zaki 6og'langan nutqini rivojlanish darajalari.

I daraja: hikoyadagi voqealarning bog'lanishi - to'liq.

II daraja: hikoyadagi voqealar qisman bog'lanadi.

III daraja: xuddi 2 darajadagidek va eksperimentator savollariga to'g'ri javoblar.

IV daraja: predmetlarni harakat, sifatlarini aytish.

V daraja: predmetlarni nomlash.

Xulosa: syujetni tushunish darajalari va nutq vositalari orqali bayon etish darajalari taqqoslanadi;

a) to'g'ri keladi;

b) tug'ri kelmaydi.

Agar darajalar to'g'ri kelmasa, ularning nomeri qo'shilib, 2 ga bo'linadi. Masalan, bolaning rasmlarni mazmuniga ko'ra to'g'ri joylashtirganligi 1 daraja faoliyatidek baholanadi, ularni so'z orqali tasvirlash faoliyati - 2 daraja, demak bolaning bahosi - 1,5, yani o'rta pog'onada.

Xulosa:

Metodika bo'yicha o'tkazilgan tekshirish bayonnomasi ham yuqoridagi metodikalarnikiga o'xshash bo'ladi.

Keragi doiraga olinadi Tushunish darajasi	Og'zaki bog'langan nutqning rivojlanish darajasi
I	I
II	II
III	III
IV	IV
V	V

UMUMIY XULOSA

Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarini mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va interfaolusullar bilan qurollantirish va olgan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borish lozim.

Yosh avlodni xar tomonlama yetuk, axloqli, odobli kishilar sifatida kamol toptirish muhim vazifadir. Ma'lumki o'quvchilar shaxsini shakllantirish ishlarini namunali yo'lga qo'yish uchun avvalo ularning xarakter xislatlarini qanchalik tarkib topganligini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Har bir o'quvchi axloqiy tushunchalarni qanday o'zlashtirganini aniqlamay ular bilan yakkama-yakka munosabatga kirishish mumkin emas.

Bu borada bola shaxsini tarkib toptirish, iqtidorli yoshlarning jahon andozalari talablari darajasidagi ilg'or bilimlar asosida tahsil olishlari, barkamol inson va yuksak ma'naviyatli, yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishlari uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida mustaqil fiklash jarayonlarini shakllantirishda butun ma'suliyat boshlang'ich sinf o'qituvchisining zimmasiga tushadi.

BMIning asosiy vazifasi - Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishda o'qituvchi nutqining o'rni va ahamiyatini aniqlab, yuksaltirishga oid xususiyatlarni shakllantirishning psixologik samaradorligini aniqlash.

BMI kichik maktab yoshi o'quvchilarida Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishda o'qituvchi nutqining ahamiyati va o'rni, boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik hususiyatlari, nutq va o'qituvchi nutqi haqida umumiy tushuncha, jamiyatda o'qituvchining tutgan urni va vazifalari, ta'lim jarayonida o'qituvchi nutqining ahamiyati, boshlang'ich sinf o'qituvchida nutqning taraqqiy etishi, o'quvchi shaxsini shakllanishida o'qituvchi nutq qobiliyati o'rni tushuntirib berilgan.

“Boshlang’ich sinf o’quvchilariga ta’lim-tarbiya berishda o’qituvchi nutqining ahamiyati va o’rni” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi davr talabi asosida tanlangan.

Bitiruv malakaviy ishda quyidagi taklif ilgari surildi. Ushbu muammo orqali ta’lim jarayonini takomillashtirish ta’lim oluvchilarning faolligini ta’minlovchi shart-sharoitlarni yaratuvchi qulay usul va shakllarni tanlash va qo’llay olish orqali amalga oshiriladi. ta’limning belgilangan vazifalaridan biri yuqori saviyada o’qitishni ta’minlash va malakali kadrlarni zamonaviy ta’lim dasturlari asosida tayyorlashdan iboratdir. Ta’lim muassasasi o’sib kelayotgan shaxsni o’qitish jarayonida ularga ta’lim olish sharoitlarini yaratadi. O’quvchilarning bilimga ehtiyojlari va qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishning yo’naltirilgan bo’lishi o’qituvchi faoliyatining ma’suliyatini oshiradi. Ta’lim muassasasi o’qituvchisining malakasi maxsus va pedagogik fanlar bilan yoritiladigan ikki qirraga ega bo’lishi lozim va u doimo: «Nima uchun o’qitish kerak?», «qanday o’qitish kerak?» degan savollarga javob topishi, shuningdek, ta’lim-tarbiya xususiyatlari e’tiborga olingan bilimlarga asoslangan bo’lishi lozim.

Ta’limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta’lim markazida bo’lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta’minlash uchun ta’lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko’rgan va o’z sohasidagi bilimlarini mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o’quv va tarbiyaviy mashg’ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o’qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o’qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va interfaolusullar bilan qurollantirish va olgan bilimlarini o’quv-tarbiyaviy mashg’ulotlarda qo’llash malakalarini uzluksiz oshirib borish lozim.

Yosh avlodni xar tomonlama yetuk, axloqli, odobli kishilar sifatida kamol toptirish muhim vazifadir. Ma’lumki o’quvchilar shaxsini shakllantirish ishlarini namunali yo’lga qo’yish uchun avvalo ularning xarakter xislatlarini qanchalik tarkib topganligini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Har bir o’quvchi axloqiy tushunchalarni qanday o’zlashtirganini aniqlamay ular bilan yakkama-yakka munosabatga kirishish mumkin emas.

Bu borada bola shaxsini tarkib toptirish, iqtidorli yoshlarning jahon andozalari talablari darajasidagi ilg'or bilimlar asosida tahsil olishlari, barkamol inson va yuksak ma'naviyatli, yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishlari uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida mustaqil fiklash jarayonlarini shakllantirishda butun ma'suliyat boshlang'ich sinf o'qituvchisining zimmasiga tushadi

Iymonimiz komilki kelajagi buyuk davlatimizda buyuk ajdodlarga munosib vorislar etishib chiqadilar va ular o'z madaniy saviyasi, ma'naviyati bilan jahon madaniyati taraqqiyotiga o'z ulushlarini qo'shadilar.

Mana shularning hammasi kichik maktab yoshi o'quvchilarining xilma-xil intellektual va axloqiy qolaversa yuksak tuyg'ularning va ijobiy xarakter hislatlatining tarkib topishi uchun manba bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: 2008.
2. Karimov I.A. “2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi”
3. Karimov I.A.O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.-Toshkent: 2011
4. Karimov “Jahon moliyaviy – inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari”. Toshkent 2009
5. Karimov I. A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish – bosh yo'limiz. G`G` Ma'rifat, – Toshkent: 2002 (16.02.02y.).
6. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z ho'limiz bilan huramiz. – 7– tom. – Toshkent: O'zbekiston,
7. Karimov I.A. Sog'lom xalq, sog'lom millatgina buyuk ishlarga hozir bo'ladi. G`G` Xalq so'zi. – Toshkent: 2004 (8.12.2004y.)
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari. O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim standartlarining davlat tizimi. Oliy ta'lim. 5141600 – Boshlang'ich ta'lim va sport–tarbiyaviy ish yunalishi. – Toshkent: 2006
9. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» G`G` Oliy ta'lim (me'yoriy huquqiy va uslubiy xujjatlar to'plami). – Toshkent: 2004.
10. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun G`G` «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
11. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. M., Aspekt press, 1999.
12. Badmaev B.TS. Psixologiya: kak ee izuchit i usvoit. M., Uchebnaya literatura, 1997.
13. Vilyunas V. Psixologiya emotsiy. M., Izdatel'stvo Moskovskogo universiteta. 1984.
14. Davletshin M. Va b. Psixologiya izohli lug'at. T., O'qituvchichi, 1998.
15. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. T., O'qituvchichi, 1994.
16. Leont'ev A.M. Problemu razvitiya psixiki. M.. Nauka, 1982.
17. Logvinenko A.D. CHuvstvennue osnovu vospriyatiya prostranstva. M., Izdatel'stvo Moskovskogo universiteta, 1985.

18. Nemov R. Prakticheskaya psixologiya. M., Vldos, 1998.
19. Petrovskiy A.V. Lichnost', deyatelnost', kollektiv. M., 1982.
20. Rogov E.I. Nastol'naya kniga prakticheskogo psixologa. M. Vldos, 1999.
21. Simonov P.V., Ershov P.N. Temperament, xarakter, lichnost'. M., Nauka, 1984.
22. Siuni A.S. Prakticheskie zanyatiyapo psixologii. M., Prosvexenie, 1990.
23. Tixomirov A.K. Psixologiya mushleniya. M., Izdatel'stvo Moskovskogo universiteta. 1984.
24. Xalilov M.X. Oila psixologiyasi.SamDU nashri, 1998.
25. Xalilov M.X. Bilish jarayonlari psixologiyasi.SamDU nashri, 1999.
26. CHuprikova N.Psixika soznanie kak funktsii mozga. M., Muslb, 1985.
27. Xerbakov A.I. Praktikum po obxey psixologii. M., Prosvexenie, 1990.
28. G'oziev E. Intellekt psixologiyasi. T., O'qituvchichi, 1996.
29. Goziev E. Va b. Psixologiya muammolari. T., O'qituvchichi, 1996.
30. Goziev E. Psixologiya. T., O'qituvchichi, 1994.
31. Karimova V. Psixologiya. Toshkent 2000y.
32. X.Ibragimov, U.Yo'ldoshev, X.Bobomirzayev Pedagogik psixologiya T-2007.





